

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

G. J. TOSHOVA.

M. O. OCHILOVA.

N.A.RAXIMOVA

“Oila pedagogikasi” fanini o’qitishga zamonaviy yondashuvlar.



Buxoro-2021

MUQADDIMA

**«XALQIMIZ QADIM-QADIMDAN OILANI MUQADDAS DEB
BILGAN.**

**OILA AHIL VA TOTUV BO'LSA, JAMIYATDA TINCHLIK VA
HAMJIHATLIKKA ERISHILADI, DAVLATDA OSOYISHTALIK VA
BARQARORLIK HUKM SURADI.OILA FAROVONLIGI MILLIY
FAROVONLIK ASOSIDIR».**

I.A.KARIMOV

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab bugungi kungacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yonalishi sifatida e'tirof etilmoqda. JUMLADAN OZBEKISTON RESPUBLIKASINI YANADA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA HARAKATLAR STRATEGIYASINING “Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish “ yo'nalishida quyidagilar ko'zda tutilgan:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini o'shish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan o'shish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda organish;

bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish;

kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish; ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich kopaytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy oquv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Bu maqsadni amalga oshirishda ta'limning yangi-yangi modellari yaratilmoqdaki, uning nazariy asoslari etakchi mutaxassis-olimlar tomonidan ilmiy-amaliy tarzda isbotlab berilmoqda.

Ozbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga moljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yonalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida:

“Oldimizda yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi. Yana bir muammoni hal etish muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur.”¹ ekanligi ta'kidlab otildi.

Ma'lumki, sobiq shorolar tuzumida pedagogika fani, ta'lim sohasi ma'lum darajada deysinib qolgan, tog'rirog'i, sobiq tuzum manfaatlari, xohish-istaklari doirasida bir qolipga tushib qolgan edi. Bu ahvol shaxs qobiliyatini, imkoniyatini to'liq namoyon etishini va mustaqil ijodiy faoliyat korsatishini har tomonlama bog'ib, faqat buyurilgan ishni bajaradigan ijrochini tarbiyalashga imkon berar edi.

¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.T."O'zbekiston", 2017 y. – 45-b.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini isloh qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad- ta'limga bo'lgan aynan shu munosabatga barham berishdan iborat. SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ishlab chiqildi.

Bugun hayotimizning hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim-tarbiya mazmunini tubdan o'zgartirish, uni zamon talabi darajasiga ko'tarish asosiy o'rinni egallaydi. CHunki jamiyatning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyo'ti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi taqdiri, Respublika mustaqilligi va bozor iqtisodiyotiga mos ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirish – bularning barchasi zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Har bir jamiyat va davlatda ta'lim tizimi zimmasiga strategik vazifalar yuklanadi. SHu sababli, ta'lim sohasiga mavjud jamiyat taraqqiyotidan bir qadar oldin yurish tamoyilidan qarash azaldan an'ana sifatida shakllangan.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab va ko'p qirrali vazifani muvaffaqiyatli hal etishni faqat malakali, yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lgan qituvchi bilan amalga oshirish mumkin. Ammo pedagogik mahorat- tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki u izlanish, ijodiy mehnat orqali qo'lga kiritiladigan yutuq hisoblanadi.

Pedagogika va psixologiya yo'nalishida "Oila pedagogikasi" fanini o'qitish jarayoniga zamonaviy yondashuv orqali innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturida berilgan bilim, ko'nikma va malakalar tarkibida oila va uning vazifalari masalasi o'quv kursining etakchi moduli sifatida o'rganiladi.

Ma'lumki, oila shaxs tarbiyasida, boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda, eng muhim vaziyolarni bajaradi. Chunki aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi.

“Oilaviy munosabatlar - oliy qadriyat” deb hisoblangan bizning respublikamizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo’lib, u o’z mavqeni hozirgacha saqlab kelmoqda. O’zbek oilasida zaruriy tarbiyaviy omil va ko’nikmalar avloddan-avlodga o’tib kelmoqda. Ko’p bolali o’zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi munosabatlarning barqarorligini ta’minlagan. Biroq bugungi kunda oila inqirozi ko’pgina oilalar, shu jumladan, o’zbek oilalariga ham o’z ta’sirini ko’rsatmoqda. Oila a’zolari sonining qisqarishi, avlodlarning uzoqlashuvi muammosining kuchayishi munosabati bilan, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi borgan sari muhim ahamiyatga ega bo’lib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagoglar yordamiga muhtoj bo’lib qolgan.

Oliy o’quv yurtlarining “Pedagogika va psixologiya” yo’nalishida o’qitiladigan “Oila pedagogikasi” bolajak mutaxassislarni ana shu muammolarni bartaraf etish borasidagi bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiruvchi ijtimoiy sohani siyoatida tavsiyolanadi. Shuning uchun bu sohanni o’qitish jarayoniga zamonaviy yondashuv masalasi dolzarbdir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta’lim tajribalarini organish songgi yillarda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omil – innovatsion texnologiyalar va ularning imkoniyatlari ekanligini korsatdi. Shu sababli ta’limiy islohotlarning muhim yonalishi oqitish ishlarini tashkil etuvchi va barkamol shaxs tarbiyasi uchun mas’ul bolgan muassasalar yoaoliyatiga ilg’or innovatsion texnologiyalarni samarali joriy etishdan iborat etib belgilandi.

Respublika uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini belgilab beruvchi muhim me’yoriy hujjatlarda alohida qayd etilganidek, ta’lim jarayonini ilg’or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etish ijtimoiy maqsad – komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalashda yuqori natijalarga erishishni kafolatlaydi. Innovatsion texnologiya nazariyasining muhim jihati – bu har bir pedagogning o’z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta’lim oluvchilarning muhim xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning o’quv faolliklarini oshirish maqsadida ta’lim

jarayonida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalana olishi hisoblanadi.

Agar texnologiya tushunchasini bevosita pedagogik jarayonlar bilan bog'lasak, u holda ta'lim-tarbiya qonunlarini amalga oshirish, ularning yangi qonuniyatlarini kashf etish umumiy maqsadga erishish-ijobiy siyoat o'zgarishlarga ega bo'lgan barkamol avlod shaxsini shakllantirish tushuniladi yoki pedagogik texnologiyani, dastlabki tushuncha siyoatida, shaxsda maqsadli siyoat o'zgarishiga olib kelishini taxmin etuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining tizimiy usullari, deb qarash ham mumkin bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ham o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta'lim maqsadlari belgilanadi yoki loyihalanaadi, kutilayotgan yakuniy natija - ijobiy siyoat o'zgarishi kayfolatlanadi, o'quv jarayonining kerakli tuzatishlar kiritilib borilaveradi. Bu jarayon barcha sohanlar qatori pedagogika-psixologiya yo'nalishida o'qitiladigan "Oila pedagogikasi" sohaniga ham to'la tatbiq etilishi mumkin.

"Oila pedagogikasi" sohanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiyaviy jarayonini oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani auditoriyada amalga oshirishni ko'zda tutadi. SHu boisdan pedagogik texnologiyalarning muhim prinsipi - bolajak oquv-tarbiyaviy jarayonni oldindan loyihalash prinsipidir. Bu esa, tabiiyki, o'qituvchidan ijodiy foaliyatni talab etadi. Loyihalangan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etilishi lozim. O'quv vaqti pedagogik texnologiyani oldindan qurishda muhim korsatkich hisoblanadi va uni o'qituvchi hisobga olishi shart. Loyihalanaayotgan didaktik jarayon talabalarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi, hamma uchun tushunarli bo'lishi juda muhim. SHundagina yakuniy natija qo'lga kiritiladi.

"Oila pedagogikasi" soanini o'qitishga texnologik yondashishda, avval o'zlashtirilgan va yangi bilimlarning o'zaro bog'liq bolishiga katta e'tibor beriladi. K.P.Makvardning ta'kidlashicha, o'zlashtirilayotgan bilimlarning puxtaligi ana shu bog'lanishning mustahkamligi va ko'lamiga bog'liq bo'ladi.

Agar bu bog'lanish bo'lmasa, organilayotgan o'quv materialini yodlash ham bilimlarni shakllantirmaydi. Agar yangi va oldingi axborotlarning qismlari,

shuningdek, ularning o'zlari orasidagi bog'lanishlar qanchalik mustahkam bo'lsa, demak, ana shunday mustahkam bilimlarga ega bolinadi.

Qolaversa, ta'lim texnologiyalari har bir talabada ta'limiy foallikni yuzaga keltirib, uning oddiy tinglovchi yoki tayyor axborotlarni qabul qiluvchi bo'lib qolishiga yo'l qo'ymay, aksincha, faol sub'ekt siyoatida bilimlarni puxta va tezkor o'zlashtirishlariga yordam beradi. SHu sababli zamonaviy ta'lim o'qituvchilardan ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olishlari hamda har bir mashg'ulotni ijodiy yondashuv asosida tashkil eta olishlarini taqozo etadi.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq quyidagi muammolarni amaliyotda ijobiy hal etish zaruriyati paydo bolmoqda:

- ta'lim jarayonini tashkil etishga zamonaviy talablar nuqtai nazaridan yondashish;
- ta'lim islohotlari davrida oqituvchilarni faol bolishga, yangicha ishlashga, mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- o'qituvchilarni ta'limning yangi mazmunini o'zlashtirishga ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirib olishlariga yordam berish;
- ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishini tashkil qilish.

Pedagog kadrlarning uzluksiz ta'lim olishini tashkil etish muammolariga butun dunyoda katta e'tibor berilmoqda. Bir qator xalqaro tashqilotlarda, jumladan, Jahon ta'limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta'lim bo'yicha instituti (Gamburg), Oliy ta'limning Evropa Markazi (Buxarest), Evropa Muallimlar ta'limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda bu muammo tadqiq etilmoqda.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va innovatsiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda. Innovatsiya, innovatsion ta'lim, innovatsion faoliyat, innovatsion jarayonlar muammosi, asosan, AQSH, Angliya,

Germaniya, CHexiya, Frantsiya kabi davlatlarda keng ko'lamda o'rganilgan. MDH davlatlari orasida bu muammo ustida ko'proq Rossiya, Belorussiya, Ukraina va Boltiqbuyi Respublikalari pedagog olimlari samarali ish olib bormoqda. Jumladan, K.Angelovskiy, V.V.Guzeev, M.V.Klarin, V.A.Slastenin, V.I.Slobadchikov, L.M.Fridman kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida bu muammoga ko'proq ahamiyat berilgan. O'zbekistonlik olimlardan N.N.Azizxojaeva, O.Tolipov, J.G', B.A.Farberman, B.Ziyomammedov, A. Abduqdirov, U.Nishonaliev kabi olimlar ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, yangi pedagogik texnologiyalar va ularni o'quv jarayoniga kiritish masalalari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimida bakalavriat yo'nalishlarida o'qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali talabalarni mustaqil o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalasiga aylanmoqda. Chunki bolajak mutaxassislar davlat ta'lim standartida belgilangan malakaviy talablarni egallashi zarur.

I. BOB. OILA VA UNING VAZIFALARIGA BUGUNGI KUNDA ZAMONAVIY YONDASHUVNING METOD VA USULLARI

I.1. "Oila va uning vazifalari" modulini o'qitishga zamonaviy yondashuv"ning pedagogik shart-sharoitlari.

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bolishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

Oila - jamiyatning ajralmas bolagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat

yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bolsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bolgan insongina o'zini tolaqonli bahtiyor his etadi.

Oila pedagogikasi fanining predmeti talaba - yoshlarni oilada farzand tarbiyasi, oila pedagogikasi fan yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, tanlangan vosita usullarni qo'llashi va natijasini ko'ra bilishini hamda tarbiyachilik san'atiga ega bolish uchun bilimlarni o'rgatuvchi fandır.

Oila pedagogikasi fanining maqsadi: talaba-yoshlarni oila, oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirish orqali oilada bolalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning amaliy asoslari bilan tanishtirishdan iborat.

Oila pedagogikasi fanining vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- talabalarni oilaning xuquqiy asoslari bilan tanishtirish orqali oilaning mustahkamligini ta'minlashga oid bilimlar bilan qurollantirish;
- oilada bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga o'rgatish;
- oilaviy tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan tanishtirish;
- oilaviy munosabatlarning o'ziga xosliklarini tahlil etishga o'rgatish,
- o'zbek oilalarida farzand tarbiyasidagi samarali shakl, metod va vositalarini tanlay olish konikma va malakalarini shakllantirish.

Oila pedagogikasi fani osib kelayotgan yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash uchun oilada berilayotgan tarbiyaning mazmuni, umumiy qonuniyatlar, tamoyil va metodlariga doir bilimga ega bolmog'i lozim.

Oila pedagogika fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (Ozbekiston tarixi, huquqshunoslik, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi), matematik va tabiiy-ilmiy (yosh fiziologiyasi va gigiena, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish), umumkasbiy (pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, tarbiyaviy ishlar metodikasi, umumiy

psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya), ixtisoslik (pedagogik aksiologiya, pedagogik konfliktologiya) fanlari bilan o'zaro aloqada olib boriladi.

Oliy o'quv yurtlarida "Oila pedagogikasi" fanini o'qitishda zamonaviy yondashuv talabalarning ushbu fanni mukammal o'zlashtirishlari uchun asos bola oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri – bu ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish va unga nisbatan zamonaviy yondashuv uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi.

Ammo ilg'or pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. Oqituvchi faoliyatini ozgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi.

Pedagogikada **innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish** kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab, AQSH va G'arbiy Evropa mamlakatlarida «ta'lim texnologiyasi» tushunchasi e'tirof etilgan vaqtda paydo boldi. O'sha vaqtdayoq Evropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashqil etildi.

Bu tushunchalarning paydo bo'lishi va innovatsion ta'lim nazariyasining yaratilishi to'g'risida ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga kiritish orqali ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta'minlash, bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga dostona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. O'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida pedagogik faoliyat "ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar yig'indisi" deya talqin etildi.

Hozirgi kunda dunyoning eng taraqqiy etgan AQSH, Angliya, YAponiya, Germaniya, Turkiya va Koreya kabi mamlakatlarda ta'limga tizimli yondashuv natijasida talabalarning fanlardan ozlashtirishlari yuqori darajada bo'lmoqda. Jumladan, Janubiy Koreyada pedagogik texnologiyalar boyicha tajriba sifatida o'qitilgan 50 ming nafar oquvchining 75% ijobiy o'zlashtirishga erishdilar. Odatda, bunday korsatkichga faqat eng a'lochi talabalargina erisha olishlari mumkin.

Hozirgi kunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish va ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish zaruriyati shuning uchun dolzarb masalalardan biriga aylanmoqdaki, amaldagi an'anaviy o'qitish tizimi o'z faolligini ancha yo'qotdi, ya'ni quruq so'zlar yordamida o'qitish ijobiy samara bermayapti.

Innovatsion faoliyat – pedagogning kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. O'qituvchi innovatsion faoliyatning sub'ekti va tashabbuskori sifatida yangilikni yaratish, qo'llash va ommalashtirishda ishtirok etadi. Zero, o'qituvchi innovator sifatida muayyan fan asoslari, an'analariga xos o'zgarishlar mazmunini tahlil eta olishi kerak.

“Innovatsion faoliyat” tushunchasi “innovatsiya”, “innovatsion” jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. SHu sababli ushbu tushunchalar mazmunini anglamasdan turib, innovatsion faoliyat mohiyati tushunish mumkin emas.

Innovatsiya (ing. “innovatsion” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deya ta'riflanadi. Innovatsiya – amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yonaltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim

mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli boladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bolgan oxirgi natijadir.

Ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsiyalar tasniflanadi:

1. Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
2. Kiritilgan ozgarishlarning tavsifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan).
3. O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
4. Kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi sarflangan mablag' yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli olaroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashqil etadi.

Amaliyotga innovatsiyaning kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion o'zgarishlarga tayyogarlik ko'rish va uni amalga oshirish jarayoni innovatsion jarayon deb aytiladi.

I.P.Podlasiy pedagogik tizimda ro'y beradigan innovatsion o'zgarishlar quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Pedagogik tizimning tamomila o'zgarishi.
2. O'quv jarayonining ozgarishi.
3. Pedagogik nazariyaning ozgarishi.
4. O'qituvchi faoliyatining ozgarishi.
5. Talaba faoliyatining yangilanishi.
6. Pedagogik texnologiyaning o'zgarishi.
7. Mazmunning yangilanishi.
8. SHakl, usul va ta'lim vositalarining o'zgarishi.

9. Boshqaruvning o'zgarishi.

10. Maqsad va natijaning o'zgarishi.


Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham muallif tomonidan qayd etilgan.

Ta'lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta'riflash imkoniyati paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir.

Innovatsion faoliyat – bu yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi, yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorining mavjud me'yor bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir",-deb ta'kidlaydi V.I.Slobadchikov. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi bolib, u ma'lum doiradagi muammolarni echish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni echish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bolishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali

tashkil

etishdan iborat.



O'quv jarayoniga zamonaviy yondashuvdan asosiy maqsad – o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba ishlarini olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon, yangi takomillashtirilgan mashg'ulot yaratishni ifodalaydi.

Agar o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash vazifalari malaka oshirish jarayonida amalga oshirilsa, amaliyotda ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlari ancha samarali boladi hamda masofadan oqitish tizimi kutilgan natijalarga olib keladi.

O'qituvchining o'qitishga zamonviy yondashuv asosidagi innovatsion faoliyatini tahlil qilib, uning shakllanish bosqichlarini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchi bosqich: tayyor metodik tavsiyanomalar aniq qilib kochiriladi.

Ikkinchi bosqich: mavjud tizimga g'oyalar, metodlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich: yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari va shakli tola ishlab chiqiladi.

Tortinchi bosqich: o'qituvchi o'qitish va tarbiyalashning o'z kontseptsiyasini va metodikasini ishlab chiqadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati haqida gapirganda bu faoliyatning ilmiy-metodik o'ziga xosligi haqidagi savol paydo boladi. Bu faoliyatning imkoniyatlari ta'lim tizimi ko'lamida innovatsion g'oyalar, loyihalar, texnologiyalarni joriy qilishda va shaxsni rivojlantirishda namoyon boladi. Bu faoliyat imkoniyatlari quyidagilarda namoyon boladi:

- o'qituvchining yangilikni qollashga tayyorgarligi;
- o'qituvchining pedagogik yangilikni qabul qilishi;

- jamoada o'qituvchining novatorlik darajasi;
- o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining rivojlanganligi;
- o'qituvchining ijodkorlik darajasi.

O'qituvchilarning yangilikni o'zlashtirishga tayyorgarlik mezonlari esa o'qituvchi motivatsiyasi, malaka tayyorgarligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish borasidagi bilim va malakalari, innovatsiya yo'lidagi tosiqlarni bartaraf eta olish mahorati bilan belgilanadi.

Ma'lumki, shaxsning ijobiy fazilatlari faoliyat korsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi. SHu sababli o'qituvchilar ozlarida yangilikka intilish, mustaqil oqib-organish, oz ustida ishlashga nisbatan zaruriyat sezishlari, o'zlarida innovatsion faoliyat konikma, malakalarini shakllantira olishlari kerak.

Demak, innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bolib, o'zining nazariy va amaliy asoslariga ega bo'lgan pedagogik faoliyatning alohida bosqichi. Innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagoglarning psixologik tayyorgarligini oshirish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga yonaltirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu tadbirlar malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim.

II.BOB. Oila va uning vazifalari o'qitishda zamonaviy pedagogic texnologiyalardan foydalanish va ilg'or xorijiy tajribalar

So'nggi yillarda ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan innovatsion xarakterga ega texnologiyalardan biri loyiha ta'limi texnologiyalari sanaladi. Ushbu ta'lim texnologiyalari ta'lim mazmuni va jarayonini muayyan loyiha, modellarda aks ettirish, o'qitish jarayonini loyihalash, ya'ni uning sxemasini tuzish, dasturlash, modelini yaratishni ifodalaydi. Loyiha ta'lim texnologiyalarining mohiyatini tola qonli anglab olish uchun dastlab "loyiha" tushunchasining mohiyatidan xabardor bo'lish talab etiladi.

Loyiha – aniq reja, maqsada asosida unig natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. korinishda namoyon boladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g'oya tashqil etadi.

Loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini yoritish

Har qanday holatda ham loyihalash “g'oya - maqsad - kutiladigan natija - taxmin qilish - bashoratlash - rejalashtirish” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya'ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog'ozi, chizg'ich, qalam, marker, nusxa ko'chirish apparati (printer) va boshqalar yordamida amalga oshiriladi.

Loyihani yaratish uchun pedagog:

- Lo'yihani yaratish;
- jarayonni bosqichma-bosqich yoritish;
- maqsadni aniq belgilash;
- maqsadga mos vazifalarni aniqlash;
- o'quv materiali mazmunini shakllantirish;
- savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;
- jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash;
- talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur.

Ta'lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi(sxemasini)ishlab chiqish

Amaliy harakat natijasi sifatida aks etadigan ta'lim jarayonini loyihalash muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Ular quyidagilardir:

1) ta'lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta'minot)ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta'minlanadi;

2) ta'limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va talaba ortasidagi) kolami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlari oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik korishning asosiy bosqichi – o'quv jarayonini loyihalashtirish hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda tashqil etiladi:

1. Darsning maqsadi va natijasini belgilash.
2. Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish.
3. Ta'lim resurslarini tanlash.
4. O'qitish va oqish strategiyasini belgilash.
5. Dars turini tanlash.
6. Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Dars maqsadi va natijasini belgilash – o'qitish va o'qish jarayonlarining eng muhim omili bolib, ta'lim jarayonida aynan ular etakchi orin tutadi. Darsning maqsad va natijasi DTS talablaridan kelib chiqib aniqlanadi. Ayni o'rinda shuni ham qayd etib o'tish kerakki, darsning maqsadi o'qituvchi tomonidan talabaga qanday bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi nuqtai nazaridan emas, balki talabalar tomonidan darsda qanday bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi muhimligidan kelib chiqib belgilanishi zarur. Oz mohiyatiga kora darsning maqsadi o'qituvchi va talabalarinigi umumiy natijalarga qarab harakatlanishlarini belgilaydi. SHu sababli darsning maqsadi tashxisli ifodalanishi lozim. YA'ni dars maqsadi aniq bo'lishi kerak.

Dars maqsadining aniq bolishiga erishish uchun oqituvchidan quyidagilarga e'tibor qaratish talab etiladi:

1) darsda yuzaga keladigan didaktik jarayon ma'lum sharoit va belgilangan vaqt ichida ta'lim maqsadiga erishishni tola ta'minlay olishi;


2) o'qitish jarayonining yakuni bo'yicha maqsadni amalga oshirish darajasi tog'risida aniq xulosa chiqarish imkoniyatining mavjudligi.

SHunga ko'ra aytish mumkinki, ta'lim maqsadlari talabalarning harakatlarida ifodalanadigan ta'lim natijalari belgilanadi.

Ta'lim texnologiyasining keyingi eng muhim komponenti – kutilayotgan natijadir. Binobarin, u o'qitish jarayonining samaradorligini aks ettiradi va maqsadga erishish darajasini tavsiflaydi, o'qitish va oqish jarayoni, natija qoyilgan maqsadga mos kelganda yakunlanadi.

Nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish – darsning didaktik maqsadi, kutilayotgan natija, o'quv materialning mazmuni asosida nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish, ularning hajmi, bajarilganlik darajasi, bajarilish sifati, vaqtiga kora baholash mezonlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Ta'lim resurslarini tanlash – mavjud shart-sharoitdan kelib chiqqan holda o'qituvchi, talaba va darsni tashqil etish uchun ta'lim vositalarining o'rinli tanlanilishini, ulardan o'quv jarayonida to'g'ri foydalanishni ko'zda tutadi. O'qituvchi, talaba va darsni tashqil etish uchun ta'lim vositalari sirasidan quyidagilar o'rin oladi:




O'qitish va o'qish strategiyasi – belgilangan o'quv materiallarini talabalar ongiga etkazish yo'llarini, ya'ni tanlangan ta'lim metodi, shakllarining amalda qo'llanilishini ko'zda tutadi.

Darsning turini tanlash – o'qituvchining mahoratiga ko'ra darsning didaktik maqsadi, o'quv materialining mazmuni, dars uchun ajratilgan vaqt, shuningdek, zarur shart-sharoitning tanlanilishini ifodalaydi.

Darsning texnologik xaritasi – dars ishlanmasining asosiy o'zagini tashqil etadi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Darsning texnologik xaritasi xususida ma'ruzaning keyingi orinlarida alohida to'xtalib o'tiladi.

Ta'lim jarayonni loyihalash: loyiha – mazmun – faoliyat uchligi asosida tashqil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.


Ta'lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi:



Ta'lim jarayonini loyihalash bosqichlari

Ta'lim jarayonini loyihalashda bajariladigan asosiy vazifalar quyidagilardir:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko'ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyahasini yaratish.



Ta'lim jarayonni loyihalashda vazifalarning belgilanishi

Dars ishlanmasi – bu ta'limiy mazmunga ega loyiha, shuningdek, o'qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Uni tuzishda o'qituvchining dars jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, dars mazmuni boyitish, ta'lim samaradorligini o'shinish **maqsadi** ko'zlanadi. Dars ishlanmasini yildan-yilga takomillashtirib va mukammallashtirib borish, yangi metodlarni qo'llash, yangi materiallarni kiritish bilan yangilab turilishi lozim. Binobarin, ta'lim jarayoniga yangi DTS, o'quv dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilishi, o'qituvchi tomonidan yangi axborot texnologiyalari, zamonaviy texnik vositalarining qo'llanishi bilan dars ishlanmalariga quyilgan talablar ham o'zgarib boradi. Dars loyihasi (ishlanmasi)ni uchun tayyor, standart qolip mavjud emas. Chunki dars “jonli” tashqil etilishi zarur. Darsning bu xususiyatiga ko'ra uni hech qanday qolipga solib bo'lmaydi. U dars turi va tanlangan metodlarga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayonini loyihalash, odatda, texnologik pasport va texnologik xaritalar vositasida amalga oshiriladi.

Texnologik pasport – ta'lim yoki ma'naviy-ma'rifiy tadbirning asosiy ko'rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat.

Texnologik xarita – pedagogik (ta'lim va tarbiya) jarayonni bajaruvchi yoki ma'lum ob'ektga texnik xizmat korsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma'lumotlar, ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan hujjat. Ta'lim jarayonni

loyihalashda odatda modellashtirishdan ham foydalaniladi. Model – real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi. Modellashtirish hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish.

Oquv jarayonida quyidagi turdagi modellar qollaniladi:

1. Oquv modellari (ta'lim jarayonida qollaniladi; korsatmali qurollar, korgazmali vositalar, trenajyorlar, ta'limiy dasturlar).

2. Tajriba modellari (ilmiy, amaliy tajribalarni olib borishda qo'llaniladi; loyihalashtirilayotgan ob'ektning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi).

3. Ilmiy-texnik modellar (jarayon va hodisalarni tadqiq etishda qo'llaniladi; qurilma, moslama, asbob, jihoz va mexanizmlar).


4. O'yin modellari (turli vaziyatlarda ob'ekt tomonidan turli harakatlarni bajarish orqali konikma, malakalarni hosil qilish uchun qo'llaniladi; kompyuter, sport, iqtisodiy, harbiy, ishchanlik o'yinlari).

5. Imitatsion modellar (real voqelikni u yoki bu darajada shunchaki aniq aks ettirish uchun emas, balki aynan unga o'xshatish maqsadida qo'llaniladi; amaliy harakatlarni bajarishga xizmat qiluvchi turli trenajyorlar, mexanizmlar). Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalar tomonidan ham turli o'quv loyihalarning tayyorlanishiga e'tibor qaratilmoqda.

Xosh, o'quv loyihasining ozi nima uni tayyorlash jarayoni qanday?

- O'quv loyihasi** – 1) talabalarning muammolarni izlash, tadqiq qilish, natija (yechim)ni mahsulot ko'rinishda rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usuli;
- 2) nazriy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o'quv harakati vositalari;
- 3) rivojlantirish, tarbiyalash, o'qitish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vosita hisoblanadi.

O'quv loyihalari faoliyat mazmuni, bilim sohasi (fanlar) bo'yicha tayyorlanishiga kora quyidagicha tasniflanadi:



Har bir o'quv loyihasi o'z maqsadi va kutiladigan natijasiga ko'ra muayyan turga mansub bo'ladi. O'quv loyihalarining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv loyihalarining asosiy turlari

Axborotli loyihalar

Tadqiqot loyihalari

Amaliy loyihalar

Maqsadi


Muammoga ma'lumotlarni ularni tahlil qilish, umumlashtirish, yoritish, muammoni hal etish usul va vositalarini tavsiflash, ularning ahamiyatini asoslash	oid to'plash, qilish, mohiyatini hal etish usul va vositalarini ularning ahamiyatini asoslash	Tadqiqotni oshirish, asosida izohini kelgusida uchun muammolarni asoslash	amalga tadqiqot muammo asoslash, rivojlanish yangi asoslash	Muammoni hal etish usul va vositalarini ishlab chiqish
--	---	---	---	--

Natijasi

Maqola, referat, ma'ruza, keys va b.	Hisobot, ma'ruza, keys va b.	Harakatlar dasturi, biznes-reja, keys, strategiya, tavsiya, ma'lumotnoma toplami va b.
--------------------------------------	------------------------------	--


Loyiha mavzusi (namuna)

Pedagogning ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvi oqitish sifati va samaradorligini kafolatlay oladimi?	Ish tajribasidan qat'iy nazar har bir pedagog innovator bo'la oladimi?	Pedagogning innovatsion faoliyati aynan nimalarda aks etadi?	Pedagogning innovatsion faoliyat malakalarini o'zlashtirish dasturi. Pedagogning innovatsion faoliyatni tashqil etish strategiyasi
--	--	--	--




Loyiha ta'limi texnologiyalaridan o'quv amaliyotida foydalanishda "o'quv loyihaviy faoliyat" tushunchasi ham qo'llaniladi. O'quv loyihaviy faoliyat – o'quv maqsadiga erishish yoki muammo, muammoli vaziyatni hal qilish yolida talabalar tomonidan izchil amalga oshiriladigan harakatlari majmuasi sanaladi. Talabalarning o'quv loyihaviy faoliyati muayyan bosqichlarda tashqil etiladi. Ular quyidagilardir:

Talabalar o'quv loyihaviy faoliyat bosqichlari



Talabalarning juftlik, kichik guruhlar yoki jamoa asosida turli mavzulardagi o'quv loyihalarni tayyorlashlari quyidagi jarayonda kechadi:



Demak, bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirish, samaradorligini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga

oshirilmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash borasida boy tajriba toplangan. Ular orasida loyiha ta'limi texnologiyalari alohida o'rin tutadi.

Loyiha ta'lim o'qitish jarayonini loyihalash, dasturlash, modellashtirish orqali talabalarga puxta bilimlarni berishni nazarda tutadi hamda talabalarning o'quv faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon talabiga to'liq javob beradigan mutaxassisni tayyorlash bu – davr talabidir. Hozirgi vaqtda respublikamizda yosh avlodni tarbiyalash o'qitish bilim berish zamonaviy axborot texnologiyalarga yaqindan yondashish hamda yangi texnika va texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish maqsadida juda ko'p ijobiy ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

Modulli o'qitish - o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir. An'anaviy ta'limda o'quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya'ni bilim berishga yonaltirilgan bo'lsa, modulli o'qitishda ta'lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yonaltirilgan boladi.

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik.

An'anaviy oqitish texnologiyasiga asoslangan	Modulli oqitish texnologiyasiga asoslangan
Bir tomonga yonaltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→ oqituvchi→oquvchi) Axborot olish Xotirada saqlash Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. Ikki tomonlama muloqot Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish Bilim va konikmalarni namoyish etish Mazmunni tushunish va hayotga bog'lash.

Ushbu jadvalning tahlili shuni korsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta'lim an'anaviy ta'limdan o'qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

Modulli o'qitish ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama echish imkoniyatini yaratadi:

- Modul – faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarini o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlaydi;
- O'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;
- kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la royobga chiqarish.

Modulli o'qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o'qituvchilar tarkibi darajasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;
- modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o'qitishda o'quv dasturlarini to'la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o'qitish imkoniyati yaratiladi. YA'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin boladi. Modulli o'qitishga o'tishda quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- o'qitishning uzluksizligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish uchun etarli sharoit yaratish;
- o'qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o'zlashtirishga erishish.

Modulli o'qitish fanning asosiy masalalari boyicha umumlashtirilgan ma'lumotlar beruvchi muammoli va yoriqli ma'ruzalar o'qilishini taqozo etadi.

Ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Modul amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari ma'ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma'ruzalar mazmunini o'rganiladigan yangi material bilan to'ldirilishi kerak.

¹ Xasanboeva O. va boshq. Oila pedagogikasi - T.: Aloqachi. 2007. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. - T.: Oqituvchi. 1994.

Modulni o'qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o'qitishning quyidagi usullarini qo'llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o'quv oyinlar;
- loyihalash va yonaltiruvchi matnlar va hokazo.

O'qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzalliklari aniqlandi:

-fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o'qitish uzluksizligini ta'minlanishi;

-har bir modul ichida va ular orasida o'quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o'rnatilishi;

-fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

-talabalar o'zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan song) qilinishi;

-talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko'ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so'ng o'qituvchi ayrim talabalarga fanni individallashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni «siqib» berish natijasida o'qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o'quv vaqti tarkibini ma'ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg'ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talaba etarli bilimlarga ko'nikmaga ega bo'ladi.

Modulli metodika asosida o'qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Tanqidiy fikrlash malakalari – u qo'yilgan maqsadga etishga yo'l topish imkonini beruvchi usullar yoki operatsiyalar majmuasidan iborat. Uzluksiz ravishda ro'y beruvchi fikrlash jarayonini bir qator bo'laklangan operatsiyalarga ajratish juda sun'iy bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin bunday qilinishi tanqidiy fikrlashga oid keng mavzuni ishlashga qulay tarkibiy qismlarga ajratish uchun zarur. Qismlarga ajratish materialni yaxshi o'zlashtirish uchun kerak bo'lib, u aslo tanqidiy fikrlash jarayonini alohida olingan elementlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin, - deb hisoblamaydi.

Ma'lum usullarni qo'llash tanqidiy fikrlashni bir muncha soddalashtirishidan qat'iy nazar, uni tasavvur qilishning qulay yo'lidir. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish quyidagi ikki farazga asoslanadi:

- a) fikrlashni muayyan ko'nikma va usullari mavjud va o'quvchilarni ularni bilishga va kerakli darajada foydalanishga o'rgatish mumkin;
- b) agar o'quvchilar buni uddalaay olsalar, yanada samaraliroq fikrlay boshlaydilar.

Jismoniy ko'nikmalarni egallash kabi, fikrlash ko'nikmalarini egallash uchun ham, maxsus o'qitish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish, natijalarga ega bo'lish va vaqt talab qilinadi.

Tanqidiy komponent umumiy fikrlash jarayonining ajralmas qismi sifatida juda muhim. Lekin u – fikrlashning bir qismigina xolos: avtomobil g'ildiragi alohida olinganda befoyda, lekin bu holat g'ildirak butunlay keraksizligini bildirmaydi.

Faqat tanqidiy fikrlash bilan cheklanib qolish xavf-xatardan xoli emas, o'ta aqlli insonlar shu kabi qopqonga tushib qolib, zamonaviy jamiyat uchun zarur bolgan konstruktiv va yaratuvchan fikrlashlarini rivojlantirmaydilar. Maktab ham, kollej ham, hattoki oliy oquv yurti ham fikrlashning konstruktiv va yaratuvchan qirralarini rivojlantirishga e'tibor berib, vaqt ajratmaydilar: bu muassasalarda shunchaki fikrlashga o'rgatamiz degan ishonch bor. Ijodiy va yaratuvchan fikrlash bilan mustahkamlanmagan tanqidiy fikrlash, yangi zarur g'oyalarni paydo bo'lishini yanada murakkablashtiradi.

¹ Xasanboeva O. va boshq. Oila pedagogikasi - T.: Aloqachi. 2007. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi. 1994.

SHunday qilib, ta'kidlash mumkinki, tanqidiy fikrlashdan tashqari bizga yaratuvchan–konstruktiv turdagi fikrlash ham zarurdir. Tahlil qilishdan tashqari ijod va ixtiro qilish mahorati ham zarur. Mantiqqa qo'shimcha yaxshi idrok etish qobiliyatiga ham ega bo'lish kerak.

Tanqidiy fikrlashga o'rgatish uch bosqichli moduli asosida amalga oshiriladi:

1. CHaqiriq (ilgari olingan bilimlarni qayta esga solish).
2. Tushunish -anglab etish (yangi mavzuni o'rganish).
3. Mulohaza qilish- fikrlash (yangi bilimlarni mustahkamlash).

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi turli mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilgan. Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qitish, asosan o'quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o'qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko'proq o'quvchilar tomonidan o'quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o'quv bahsi va munozaralar o'tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g'oyalar bir-birini to'ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bolgan. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlari ta'lim muassasalarida keng qo'llanila boshlagan.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahlil olishdagi muvafaqqiyati guruh muvafaqqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

III.BOB. Oila va uning vazifalari bugungi kunda

Oila jamiyatning negizidir. “Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin, bunda o'zaro hurmat, qattiq tartib bo'lmasa, oila a'zolarining hammasi o'z burchlarini ado etmasa bir – biriga nisbatan ezgulik bilan mehr – oqibat ko'rsatmasa yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas” - degan edi Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov.

Bugungi Ozbekiston uning kelajak ravnaqi, avvalo uning fuqarolariga, ularning amaliy faoliyatiga ko'p jihatdan oilaga va oiladan bolalarga singdirilgan tarbiyaga bog'liqdir.

Oilani mustahkamlash, uning turmish darajasini oshirish eng avvalo oila a'zolarining sog'lig'ini yaxshilash eng dolzarb masalalaridir. Biz doimo farzandlar kelajagini o'ylashga, tarbiyasiga e'tibor berishga ko'nikkanmiz. Chunki farzandlarimiz kelajagimizdir.

Har bir jamiyat o'zining maqsadidan kelib chiqib inson shaxsining yuzaga keltiradi. Jamiyatimizning demokratik asosda qayta qurishdir.

1.Munavvarov A.K. Pedagogika. - T.: O'qituvchi. 1996.

To'rayeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.:O'qituvchi. 1998.

Iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirishda ma'naviy axloqiy shakllantirishda oila oilada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson jamiyat talab qiladigan qonun – qoidalarni bilib o'zlashtirib olgach, ma'lum maqsadga aaratilgan faoliyatni boshlaydi. Inson faqat sharoit, tarixning mahsuli bo'lib qolmay, balki ularning yaratuvchisi ham. SHuning uchun ham har bir insondan O'zbekistonni mustahkamlashda, uni har tomonlama rivojlantirishda o'z burchini ko'r – ko'rona emas, balki ongli ravishda bajarish talab etiladi.

Ko'p asrlik tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki jamiyatning haqiqiy boyligi inson va uning avlodidir. SHuning uchun ham ajdodlarimiz o'z nasllarini umumbashariy tuyg'ular, sharq falsafasi va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab kelgan.

O'zbek oilalarida bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan.

Bugungi O'zbekiston mustahkamligi uning kelajak ravnaqi uning fuqarolariga ma'naviy barkamolligiga, g'oyaviy etukligiga, oilaga va oiladagi tarbiyaga bog'liqdir. Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum vazifalarni bajaradi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri – iqtisodiy vazifasidir. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik harajatga zarur buyumlarga pul ajratish bir necha yildan so'ng olinadigan narsaga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er va xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lganligiga bog'liqdir. Oilada o'sayotgan bola ham shunday malaka va ko'nikmalarni egallab boradi.

Oila o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Hozirgi zamon oilasida xo'jalik ishlarini yuritish, ishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish ishlarini

1. Munavvarov A.K. Pedagogika. - T.: O'qituvchi. 1996.
To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.: O'qituvchi. 1998.

tashkil etish iqtisodiy vazifasini amalga oshirayotganligini ko'rsatib o'tadi.

Iqtisodiy vazifasida:

- oila daromadini rejali ishlatish;
- oilaning kundalik harajatlariga pul ajratish;
- oilaning bir necha yildan so'ng oladigan narsasiga mablag' yig'ish;
- oilaning byudjeti;
- xo'jalik ishlarini yuritish;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;
- fermer xo'jaligi;
- shaxsiy ishlab chiqarish omillari.

Oilaning reproduktiv vazifasi. Bu vazifaning asosiy mohiyati inson avlodini davom ettirishdan iboratdir. Oila nafaqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmay, ularni insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, ularni salomatligini saqlab qolish dan iboratdir.

Oilada farzand tug'ilgandan keyin onada onalik hissi, otada otalik hissi paydo bo'ladi. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv vazifasi va uning bajarilishi deyilgan aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand ko'rish nazarda tutiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq 8 – avloddan keyin yo'q bo'lib ketish mumkin ekan. Agar oilada 2 ta farzand bolsa aholi sonini saqlab turishini ta'minlay olmaydi. Olimlarning fikricha reproduktiv vazifani bajarishi uchun o'rtacha 3 tadan farzand ko'rish kerak ekan.

Oila va uning vazifalari.

Oila jamiyatning negizidir. “Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish imkin, bunda o’zaro hurmat, qattiq tartib bo’lmasa, oila azolarining hammasi o’z rchlarini ado etmasa bir – biriga nisbatan ezgulik bilan mehr – oqibat ko’rsatmasa xshi va munosib tarzda yashash mumkin emas” - degan edi Birinchi Prezidentimiz om Abdug’anievich Karimov.

Bugungi Ozbekiston uning kelajak ravnaqi, avvalo uning fuqarolariga, ularning amaliy faoliyatiga ko’p jihatdan oilaga va oiladan bolalarga singdirilgan tarbiyaga bog’liqdir.

Oilani mustahkamlash, uning turmish darajasini oshirish eng avvalo oila a’zolarining sog’lig’ini yaxshilash eng dolzarb masalalaridir. Biz doimo farzandlar kelajagini o’ylashga, tarbiyasiga e’tibor berishga ko’nikkanmiz. CHunki farzandlarimiz kelajagimizdir.

Har bir jamiyat o’zining maqsadidan kelib chiqib inson shaxsining yuzaga keltiradi. Jamiyatimizning demokratik asosda qayta qurishdir. Iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirishda ma’naviy axloqiy shakllantirishda oila oilada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inson jamiyat talab qiladigan qonun – qoidalarni bilib o’zlashtirib olgach, ma’lum maqsadga ajratilgan faoliyatni boshlaydi. Inson faqat sharoit, tarixning mahsuli bo’lib qolmay, balki ularning yaratuvchisi ham. SHuning uchun ham har bir insondan O’zbekistonni mustahkamlashda, uni har tomonlama rivojlantirishda o’z burchini ko’r – ko’rona emas, balki ongli ravishda bajarish talab etiladi.

Ko’p asrlik tarixiy tajriba shuni ko’rsatadiki jamiyatning haqiqiy boyligi inson va uning avlodidir. SHuning uchun ham ajdodlarimiz o’z nasllarini umumbashariy tuyg’ular, sharq falsafasi va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab kelgan.

O’zbek oilalarida bolalarni tarbiyalashga alohida ahamiyat berilgan.

Bugungi O’zbekiston mustahkamligi uning kelajak ravnaqi uning

fuqarolariga ma'naviy barkamolligiga, g'oyaviy etukligiga, oilaga va oiladagi tarbiyaga bog'liqdir.

Har bir oila ijtimoiy tizim sifatida jamiyat oldida ma'lum vazifalarni bajaradi. Oilaning eng muhim vazifalaridan biri – iqtisodiy vazifasidir. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik harajatga zarur buyumlarga pul ajratish bir necha yildan so'ng olinadigan narsaga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er va xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lganligiga bog'liqdir. Oilada o'sayotgan bola ham shunday malaka va ko'nikmalarni egallab boradi.

Oila o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Hozirgi zamon oilasida xo'jalik ishlarini yuritish, ishni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish ishlarini tashkil etish iqtisodiy vazifasini amalga oshirayotganligini ko'rsatib o'tadi.

Iqtisodiy vazifasida:

- oila daromadini rejali ishlatish;
- oilaning kundalik harajatlariga pul ajratish;
- oilaning bir necha yildan so'ng oladigan narsasiga mablag' yig'ish;
- oilaning byudjeti;
- xo'jalik ishlarini yuritish;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;
- fermer xo'jaligi;
- shaxsiy ishlab chiqarish omillari.

Oilaning reproduktiv vazifasi. Bu vazifaning asosiy mohiyati inson avlodini davom ettirishdan iboratdir. Oila nafaqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmay, ularni insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlar bilan tanishtirish, ularni salomatligini saqlab qolish dan iboratdir.

Oilada farzand tug'ilgandan keyin onada onalik hissi, otada otalik hissi paydo bo'ladi. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv vazifasi va uning

bajarilishi deyilgan aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtadan farzand ko'rish nazarda tutiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq 8 – avloddan keyin yo'q bo'lib ketish mumkin ekan. Agar oilada 2 ta farzand bo'lsa aholi sonini saqlab turishini ta'minlay olmaydi. Olimlarning fikricha reproduktiv vazifani bajarishi uchun o'rtacha 3 tadan farzand ko'rish kerak ekan.

Oilaning reproduktiv vazifasi:

- aholi sonini qayta tiklanishi uchun nechtadan farzand bo'lishini bilish;
- inson turini davom ettirish va salomatligini saqlash;
- ayolda onalik hissi erkakda otalik hissi;
- oilada 3 ta farzand ko'rishni ifodalaydi.

Oilaning tarbiyaviy vazifasi. Oilada bolalarni aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy tarbiyasiga asos solinadi.

- Jismoniy tarbiya;
- Aqliy tarbiya;
- Axloqiy tarbiya;
- Estetik tarbiya;
- Ma'naviy tarbiya;
- Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya;
- Jamiyatning siyosiy – g'oyaviy dunyoqarishi keng komil fuqaroni tarbiyalash.

Oilaning kommunikativ vazifasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishiga xizmat qiladi.

- Oiladagi o'zaro ichki muloqot xarakteri;
- Oiladagi o'zaro iqlim mavjudligi

Oilaning kommunikativ funksiyasi oila a'zolarining o'zaro muloqot va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Psixologik

tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, turli ijtimoiy orientatsiyalar, ustanovkalar, hissiy madaniyat, odamning axloqiy, ma'naviy va psixologik salomatligi - oiladagi o'zaro ichki muloqot harakteri, katta a'zolarining muloqotda psixologik ustanovka (ko'rsatma berish) larni namoyon qilishlari oiladagi psixologik iqlimga bog'liqdir.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida fan - texnika taraqqiyotining yuksalib, odamlarning kundalik hayotining urbanizatsiyalashuvining (radio, televidenie, video, kompyuter) ortib borishi, oilalarning tobora nuklearlashib borayotgani bilan oilaning kommunikativ funksiyasining ahamiyati ortib bormoqda.

Bu o'rinda ozbek oilasining o'ziga xos xususiyati: ko'p avlodlilik, ko'p farzandlilik kabilar bunday oilalar o'rtasida o'zaro muloqot to'laroq amalga oshishiga asos bo'ladi. Biroq so'nggi yillarda ba'zi oilalarda ota - onalar va farzandlar o'rtasida muloqotning kamligi, bir-biriga e'tiborning pasayishi, oila a'zolari o'rtasida fikr erkinligining cheklanganligi holatlari mavjud.

Hatto oiladagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuvi natijasida oila a'zolarining ayrimlarida stress (asabiy tanglik), suitsid (o'z joniga qasd qilish) kabi noxush holatlarning kelib chiqishi kuzatilmoqda. Bunday holatlarning oldini olish uchun avvalo oila a'zolari ortasida oshkora, yaqin, o'zaro tushunarli, ishonchli muloqotning amalga oshishi uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish, bu borada yoshlarga tegishli bilimlarni berish, aholi uchun psixologik maslahatxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, treninglar o'tkazish, "ishonch telefonlari", "Qalb markazlari" kabilarni tashkil etib, ular faoliyatini takomillashtirish lozim.

Oilaning rekreativ funksiyasi – o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy, psixologik yordam ko'rsatish, bir - birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funksiyasidir. Oila a'zolari salomatligini mustahkamlash, oila a'zolarining dam olishini tashkil etish, oila a'zolarining bevosita mehnat, o'qish va bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazishlarini qanday tashkil etishlari, unda bularning o'zaro munosabatlari harakteri qanday

ekanligi bugungi kun oilasining mustahkamligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan hisoblanadi. Bo'sh vaqtini qanday o'tkazishiga qarab har bir odamning yetuklik darajasiga, ma'naviy dunyosiga baho berish mumkin. Bu borada erishgan yuyutuqlarimizdan biri shuki, dam olish va sog'lomlashtirish ishlariga davlat miqyosida ahamiyat berila boshlandi.

Oilaning o'z a'zolarining axloqiy-psixologik himoyalanganligini ta'minlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Chunki odam faqat oz oilasidagina va faqat o'z yaqinlari qurshovidagina tom ma'noda xotirjam, erkin his qila olishi mumkin. Bu borada oilaning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.

Hozirgi zamon oilasining tobora ahamiyati ortib borayotgan funksiyalaridan biri uning **felitsitologik funksiyasidir** (italyacha "felitsite"- baxt). SHaxsiy baxtga erishishga intilish oilaviy munosabatlar tizimida ko'p jihatdan hal qiluvchi bo'lib bormoqda.

Baxtga intilish har bir inson uchun tabiiydir va ayni shu baxtga intilish ularni oila ko'rishiga undaydi. Inson o'ziga ato etilgan baxtning tortdan uch qismini oiladan, chorakdagi etar - etmas qismini boshqa narsalardan topadi. Oilada er - xotinning bir - birini tushunishi - ularni o'zlarini baxtli his qilishlarini ta'minlaydi. Har bir baxt o'zida ko'proq vijdonlilik, poklik, halollik kabi ma'naviy - axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga e'tibor berishi lozim.

Oilaning regulyativ funksiyasi oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarish tizimini, shuningdek, birlamchi ijtimoiy nazoratni, oilada ustunlik va obro'ni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunda kattalar tomonidan yosh avlodni nazorat qilish va ularni moddiy hamda ma'naviy tomondan qo'llab - quvvatlash nazarda tutiladi.

Hozirgi zamon egalitar oilalarda esa oilaning **boshqaruv funksiyasi** asosan axloqiy me'yorlar, oila a'zolarining shaxsiy obro'si va birinchi navbatda ota - onalarining bolalarga nisbatan bolgan munosabatlaridagi obro'si kabilar yordamida amalga oshiriladi. SHunga ko'ra ba'zi oilalarda oilani boshqarish, unga boshchilik qilish oila a'zolarining qiziqish va imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, ba'zi oilalarda (er - xotinning alohida - alohida)

liderlikka intilishi natijasida oilaviy nizolarning ortib borishi, bolalarning har tomonlama e'tibordan chetda qolishi, natijada jinoyatchilik ko'chasiga kirib ketishi kuzatiladi. Ba'zi oilalarda ayol liderligining mavjudligi o'g'il bola shaxsida ayollarga xos xususiyatlarning ko'payib borishiga olib kelishi mumkin.

SHu bilan birga oilaning boshqaruv funksiyasi oila a'zolarining xulqi, mas'uliyati, majburiyati kabilarni boshqarishni, nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Odam oila ko'rganidan so'ng albatta uning ijtimoiy mavqei o'zgaradi. Endi u "uylanmagan yigit", "turmushga chiqmagan qiz" emas, balki "oilali" odamdir. SHunga kora u o'zining xatti - harakatlari, xulqini oilali odamga xos tarzda qaytadan ko'rib chiqadi. Oila ko'rishi tufayli uning mas'uliyati ortadi. Erning va xotinning xulqi endi o'ziga xos boshqariladi.

Hozirgi zamon oilasining eng asosiy funksiyalaridan yana biri **relaksatsiya funksiyasidir**. Bu degani oila a'zolarining jinsiy, emotsional faoliyatini, ruhiy, jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini yana qayta tiklash demakdir. Ma'lumki, fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallashuvi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyotiga oldingilarga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar yuz bermoqda. Bugungi va ertangi kun sanoati, ishlab chiqarish ishchi xodimdan bor imkoniyatini safarbar qilib, butun vujudi bilan ishlashni va o'zining kasb - hunar mahoratini muntazam oshirib borishni taqozo qiladi. Yuqoridagi funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishi har qanday oila uchun oila baxtini ta'minlovchi mezon hisoblanadi. SHuni nazarda tutish kerakki., oila -jamiyatning bir bo'lagi, uning asosiy yacheykasidir. SHuning uchun oilaning o'z funksiyalarini muvaffaqiyatli bajarilishi nafaqat uning ichki holatiga, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy sog'lomligiga ta'sir etadi. SHunday ekan, jamiyatnin sog'lomlashtirish uchun eng avvalo oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'yish, oilaning faqat ichki muammolarinigina emas, balki umumijtimoiy muammolarni hal qilishga hissa qo'shishini ta'minlash lozim.

Maxsus manbaalarda qayd etilishicha, er yuzida bundan 4 milliard yillar muqaddam hayot nishonalari, jonzotlar yuzaga kelgan. Uzoq muddat davom etgan ibtidoiy taraqqiyotdan so'ng asta – sekinlik bilan ibtidoiy jamoalar, kishilik jamiyatlari yuzaga kela boshlagan va odamlar o'rtasida dastlabki o'zaro munosabatlar va muloqotlar shakllana borgan. Fikrlovchi odamlar bundan 3 million yillar oldin shakllanganligini bilishimiz mumkin. Nikoh munosabatlarining yuzaga kelishining ilk bosqichlari jinslar ortasidagi munosabatlar asoson biologik omillar bilan boshqarilgan. Bunda ibtidoiy odamlarning ayollari etakchi bo'lganlar. O'z davrida tabiiy, axloqiy me'yorga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqalar ham bo'lib turgan. Buni tabilar deb ataganlar. Tabi – axloqiy me'yorlarga qaraganda ancha jiddiy va qattiq ta'qiqdir. Axloqiy me'yorlarni buzuvchilarni jamoa jazolagan yoki oldirib yuborishi ham mumkin bo'lgan, dehqonchilikni yuzaga kelishi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga ancha yordam bergan. Keyinchalik tabilar nikohning ilk turlaridan bo'lmish ekzogam nikohni vujudga keltiradi. Ekzogam – urug'lar aro, qabilalar aro nikoh. Guruhli nikoh shaxsiy nikoh bo'lmagan ya'ni unda biron bir doimiy “er – xotinlik” juftlari mavjud bo'lmagan. Guruhli nikohda bolaning otasi kim ekanligini aniqlash mushkul bo'lgan. SHuning uchun ham bolalarning kelib chiqishi ona tomonidagina hisoblangan. Bolalar faqat o'z onasinigina bilganlar. Guruhli nikoh doirasida juftli nikoh paydo bo'lib, bu bir erkak doimo bitta ayol bilan yashashligini bildirmagan, balki ibtidoiy egalitar, ya'ni teng huquqli nikoh deyish ham mumkin bo'lgan. Bunda juft nikohlar 25, 24 ming yillar muqaddam urug' ichida iqtisodiy munosabatlarning shakllarida xususiy mulkning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu yo'lda qo'yilgan birinchi qadam “sovg'a ayirboshlash” odat bolgan. Ya'ni dehqonchilik va chorvachilikni rivojlanishi qabilaning har bir a'zosi mehnatini mahsuldorligini sezilarli darajada ortgan va bu ortiqcha iste'mol mahsulotlarni yuzaga kelishiga olib kelgan. Har bir ishchi o'zi yaratgan mahsulotni qabilaning umumiy qozoniga tashlashidan ortig'ini mukofot tariqasida mehnat haqi taqsimlana boshlagan.

Urug'larning ayrim a'zolarida ortiqcha mahsulot, shaxsiy mulkning paydo bo'lishi, oilaning shakllanishi tomon qo'yilgan yangi qadam bo'lgan. “Sovg'a

ayirboshlash”ni yuzaga keltirgan, ya’ni erkak kishi boshqa urug’dagi o’z ayoliga mukofotini sovg’a qilgan, ayol ham unga sovg’a bergan. SHunday qilib, nikohning yana bir turi individual juft nikoh yuzaga kelgan. SHu bilan birga erkakni xotin va uning bolalari bilan aloqasi muntazam va uzoq muddatli bo’lib qoldi. Qabilalar aro nikoh zaminida doimiy o’rin olgan xo’jalik birligi – jamoa tashkil topdi, unda erlar o’z xotinlari va bolalar bilan kirdi. Ya’ni iqtisodiy xo’jalik birligi oilaning yana bir turi juft oila yuzaga keldi.

Xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi va mustahkamlanishi bilan nikohning hozirgi zamon shakli manogam nikoh va manogam oilalar tashkil topdi.

Erkak va ayollarning bir – biriga nisbatan o’zaro munosabatini ilk ko’rinishlari, nikoh munosabatlarini yuzaga kelishiga sabab bo’lgan.

Ekzogam nikoh (urug’alar aro, qabilalar aro)

Guruhli nikoh

Juft nikoh

Sovg’a ayirboshlash

Manogam oila

Ibtidoiy jamoa tuzumida ayollar hususiy mulk egasi bo’lmaganlar. Bu davrda ayol kishi qul rolini bajarishga majbur bolgan. Ayollar ko’plab fuqarolik huquqlaridan mahrum etilgan. Quldorlik va feodalizm jamiyatlarida erkaklargina ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga kirishgan.

SHu bilan birga erga oila uchun barcha majburiyat, barcha mas’uliyat yuklatilgan. Er qonuniy tartibda oilani barcha a’zolarining, o’z farzandlarining xo’jayini deb e’lon qilingan. Qondoshlikni onalik chiziqlari bilan hisoblash mumkin bo’lmay qolgan, otalik chizig’i bo’yicha, shajarasi bo’yicha hisoblab kelingan.

Manogam oilaning paydo bo’lishi buyuk tarixiy ahamiyatga ega bo’ldi. Birinchidan, o’zaro estetik, etik va chuqur hissiy moyilliklar asosida turmush qurilgan ayol yoki erkakning o’z jufti halolini topishga imkoniyat yaratilgan. Bir nikohlilikning asosiy maqsadi bor merosni vorislarga berishdan iborat edi. Lekin ayolning mavqei, ixtiyori erkak qo’liga o’tadi. Bu bilan ayol jamiyatda mutloq sust

odamga aylanadi. Lekin manogam nikoh butun yashash tarixida mutloq o'zgarishdan qolmadi, balki uning rivojlanishi ishlab chiqarish usullari bilan belgilanib, ko'rinishlari esa ijtimoiy – iqtisodiy formatsiyalarga muvofiq holda o'zgardi. Feodalizm jamiyatida nikohlanuvchilarning istaklari yoki mayillari emas, balki xonadon manfaatlarini hal qiluvchi rol o'ynadi. Jamiyatga kelib xotinlarning erlariga tobeligi yanada oshdi. Oilaning ijtimoiy ahamiyati

1. Munavvarov A.K. Pedagogika. - T.: O'qituvchi. 1996.

To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. - T.: O'qituvchi. 1998.

hususiy mulkni jamg'arish ko'paytirishga qaratilgan bo'lib, nikoh savdo – sotiq ko'rinishlaridan biriga aylantirilgan edi. Sobiq sotsialistik jamiyatda turmush tarzi shakllana boshladi. Demokratik oila paydo boldi. Oilaning turmushdagi nisbiy mustaqillashuvi va hozirgi rivojiga xos va mustahkamlanishiga asos boldi.

Oila o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida turmushga nisbatan jamiyatning tarkibiga kirdi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi va rivojlanishi bilan oila ham o'zgarib bordi.

Oilaning shakllari nikoh xarakteriga qarab bir biridan farq qiladi.

1. Poligam (ko'p nikohlilik) oila.
2. Manogam (bir nikohlilik) oila.
3. Patriarhal (ota yoki aka – ukalarning biri tomonidan boshqariladigan) oila.
4. Matriarxal (ona tomonidan boshqariladigan) oila.
5. Demokratik (er xotinning tengligiga asoslangan) oila.

IV.BOB. “Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari”

I BOB. “Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari” modulini oqitishning nazariy masalalari.

1.1. “Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari” modulini oqitish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.

Ozbekiston milliy taraqqiyotning eng ma'suliyatli bosqichi-ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy hayotning keskin burilish davrini boshdan kechirmoqda.

Jamiyatimiz har bir fuqarosi XXI asr ostonasida, ortda qolgan yo'llarni sarhisob qilish va kelajak hayotning turli jabhalari rejasini belgilab olish muammosiga duch kelishi ijtimoiy yunon olimlari zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Bunday hollarda jamiyat ijtimoiy rivojining ilmiy asoslangan istiqbolli rejasini tuzib, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aristotel o'z vaqtida aytganidek, har doim va har joyda ezgulikka erishish ikki shartning bajarilishiga:

1. Har qanday faoliyat yakunidagi maqsadni to'g'ri belgilash.
2. Pirovard maqsadga erishish chora-tadbirlarni izlab topishga bog'liqdir.

Ilmiy tilda buni faoliyatning metodologik asosini aniqlash va maqsadga etishish usul va uslublarni to'g'ri belgilash deyiladi.

Mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasida pedagogika yangi taraqqiyotida yangi bosqich boshlandi. Xususan, pedagogik tadqiqotlarning ko'lami kengaytirildi, milliy pedagogik madaniyat, meros chuqur o'rganilib, shaxsga ta'lim berish va uni tarbiyalash borasidagi jahon tajribalari, yutuqlaridan milliy xususiyatlarga tayangan holda foydalanish borasidagi izlanishlar yuzaga keldi.

Oilalarda tashkil etilayotgan tarbiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra milliy xususiyatlarni namoyon etish bilan birga ijtimoiy oila tarbiyasi ijtimoiy pedagogikaning muhim yo'nalishi siyoatida o'rganildi.

Oila, turmush va vijdon qonunlari asosida quriladi. O'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas balki, oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarini, qo'shnilarining omon esonligi to'g'risida hamxorlik qilishini birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir.

«Oila pedagogikasi» ya'ni oilani bola tarbiyasidagi muhim o'rni, maqsad vazifalari, zamonaviy oila, uning o'ziga xos xususiyatlari, madaniy saviyasi, oilada bola tarbiyasidagi muammolari, yechimi, metod, shakl va

tamoyillari, oilada sogʻlom avlodni tarbiyalashni innovatsion texnologiyasi, ota-onalarning burchi, obroʻsi, vaziyolari, tarbiyachilik sanʼat sirlari kabi masalalar bilan boʻlajak pedagoglarni tanishtiruvchi fan hisoblanadi. SHuning uchun ham ushbu fanni oʻqitishga texnologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda Oʻzbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitga moslashgan taʼlim texnologiyalarini yaratish va ularni taʼlim-tarbiya amaliyotida qoʻllashga intilmoqdalar.

Chunki, taʼlim jarayonining doimiy ravishda qatʼiy belgilangan va uzoq yillar davomida amal qilib kelinayotgan vaqt davomida tashkil etilishi, mutaxassislik fanni boʻyicha mavzularga har oʻquv yilida takroran murojaat qilinishi, talabalar taʼlimiy faolligining hamisha ham yuqori darajada boʻlavermasligi kabi holatlar goho hatto oʻqituvchining oʻzida ham darsga tayyorlanishga nisbatan befarqlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday salbiy holatning oldini olish yoki uni bartaraf etishning yagona samarali yoʻli kasbiy faoliyatga nisbatan ijodiy yondashish sanaladi. Oquv jarayoniga ijodiy yondashish oʻqituvchidan doimiy ravishda izlanishni, oʻz ustida ishlashni talab etadi.

Zamonaviy, raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlash haqida soʻz borganda, oʻtgan yillar davomida katta kuch va mablagʻ hisobidan taʼlim sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon boʻlishi kerak. Taʼlim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini oʻzlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilgʻor yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlarda, oliy oʻquv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tugʻdirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy siyoatlarga ega bo'lishlari kerak: aqlli, mustaqil fikr yurita oladigan; odobli, millatimiz to'plagan barcha fazilatlarga ega; mehnatsevar, mehnat kishini ijtimoiy ehtiyojlariga aylanganligi; bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi; jismoniy-sog'lom, ruhiy va ijtimoiy salomat; milliy g'ururga ega ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy meroslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi; vatanparvar, vatan uchun xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muxofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi; baynalminal, o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi; insonparvar inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi; jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda jahon ta'lim hamjamiyatiga kirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi tizimini tashkil qilish olib borilmoqda. Bu jarayonda o'quv-tarbiyaviy ishlarni pedagogik nazariyasi va amaliyotida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim paradigmasi - ta'limning konseptual modeli – o'zgarishi sodir bo'lmoqda: boshqacha yondashish, boshqacha huquq, boshqa natijalar, boshqacha munosabatlar, boshqacha pedagogik mentaliteti taklif etilmoqda.

Bu jarayon quyidagi o'zgarishlar bilan ifoda etiladi:

1. Ta'limning mazmuni yangi protsessual mahoratlar, axborotlardan foydalanish qobiliyatining rivojlanishi, fan muammolarini ijodiy hal qilish va ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilgan bozor amaliyoti bilan boyitilmoqda.

2. An'anaviy axborot usullari – og'zaki va yozma nutq, teledasturlar va radio aloqalar o'qitishni kompyuterli tashkil etish, global internet tarmog'idan foydalanishga o'z o'rnini bo'shatmoqda.

3. Pedagogik jarayonning eng muhim tashkiliy qismi o'qituvchi va talabanning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlari bo'lib qolmoqda.

4. SHaxsni axloqiy tarbiyalashga, insonning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

5. Ta'lim omillarini yanada birlashtirish ko'zda tutilmoqda: maktab, oila, mikro va makro sotsiumlarni.

6. Ijtimoiy ong darajasiga mos pedagogik texnologiyalar yaratishda fanning roli ortmoqda.

7. Ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish psixologik-pedagogik nuqtai nazardan quyidagilardan iborat:

- a) eslab qolish vazifasi siyoatida o'qitishdan o'zlashtirganlaridan foydalanishga imkon beruvchi aqliy rivojlantirish jarayoni siyoatidagi o'qitishga o'tish.
- b) bilimlar assotsiativ, statistik modelidan dinamik tuzilgan aqliy harakatlar tizimiga o'tish.
- v) o'rta talabaga mo'ljallangan va tabaqalashtirilgandan o'qitish individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;
- g) o'qitishning tashqi sabablaridan ichki ma'naviy-irodaviy boshqaruviga o'tish.

Hozirgi sharoitlarda o'qituvchi, rahbar zamonaviy innovatsion texnologiyalar, g'oyalar, yonalishlarni bilishi kerak, ilgari ma'lum bo'lganlarni qayta kashf etishga bekorchi vaqt sarflamasligi kerak. Bugungi kunda ta'lim texnologiyalari keng turlarini o'rganmay turib pedagogik bilimli mutaxassis bo'lish mumkin emas.

Ta'limni modernizatsiyalashtirish ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish bilangina hal bo'lib qolmaydi. Talaba shaxsni mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni xis his etish, tanqidiy fikrlash kabi siyosatlar bilan bog'liq funksiyalarni ta'limni shaxsga yo'naltirilgan tizimivositada amalga oshiriladi.

“Oila pedagogikasi”ni o'qitishda talaba shaxsiga faoliyatli yondashuv bu ta'lim tizimi kotsepsiyasini tashkil etib, bunda shaxs “sub'ekti” kategoriyasi erkinlikka intilish, o'z-o'zini rivojlantirish, yaxlitlik, mustaqil o'qish, o'zligini namoyon etish va faollashtirish xususiyatlari asosida anglaniladi, o'quv jarayoni hamda uning tarkibiy qismlari-maqсад, mazmun, metod, shakl, usul, vositalar

talaba uchun shaxsan ahamiyatga ega bo'lgach, uning shaxsiy tajribasi mahsuli siyoatida tatbiq etiladi. Agar talaba o'quv faoliyatini mohiyatini anglay olmasa, o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifani tushunmaydi va qabul qilmaydi, u tomonidan sodir etilgan barcha hatti-harakatlar majburiyat ostida bo'lib, uning bilimlari rasmiy xarakterga, pedagogning faoliyati esa rasmiyatchilik mazmuniga ega bo'ladi. Bilim ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan faoliyat natijasidagina shakllanadi. Talabaning ruhiy hususiyatlari o'rganish, o'zlashtirilayotgan bilimlarning talabaga shaxsan qiziqarli va kerakli bo'lishi zarurligi, aks holda ular shubxasiz rad etilishini ko'rsatadi. Bu holat obrazli ifodalansa, individual tafakkurda bilimlar sub'ektivlashadi, o'ziga xos individual tasavvur va shaxsiy fikrlar ob'ektiv ahamiyat kasb etar ekan, bilimlar turli nuqtai nazarlarning to'qnashuvi, bahs-munozara, o'zaro hamkorlikdagi faoliyat natijasida o'zlashtiriladi, bu esa o'quv jarayonini noan'anaviy usulda tashkil etishning muhim shakllari (bahs-munozara, o'zaro hamkorlik)ni talab etadi. O'qituvchi o'z darsida shunday shart-sharoitlar yaratish lozimki, natijada talaba uchun dastlab neytral bolgan ob'ekt kutilmaganda sub'ektiv xususiyat kasb etsin. Buning natijasida talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi, izlanadi va o'qituvchi o'quv maqsadlariga erisha boradi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari talaba bilim faoliyatini tashkil etishi uchun va metodlari bilan uzviy bog'liq. Bu usullar: muammoli izlanish, tadqiqot, dialogik, munosabat metodlari (dialog, evrestik suhbat, munozara, guruhli ish turlari va boshqalar). Ta'limni shaxsga yo'naltirilgan texnologiyasi an'anaviy ta'lim texnologiyalaridan quyidagilarga ko'ra farq qiladi:

Mashg'ulotning asosiy maqsadi - tafakkur jarayonini tashkil etishdir, bilim, ko'nikma, malakalar - talaba faoliyatini mahsuli siyoatida vujudga keladi. Tafakkur jarayonining quvvati bilimlar quvvatdan yuqori turib, u shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish unsuri tarzida namoyon bo'ladi, ijodiy izlanishning natijasi kabi mazkur jarayonning o'zi ham o'ta muhim bo'lib, aynan u talaba va o'qituvchining ijodkorlik quvonchiga, yangilik yaratishga ilhomlantiradi, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyatni tashkil etishga undaydi. Talabani sub'ektivligini

amalga oshiradi: bilim usulini mustaqil belgilash, muammo echimini topishda o'z dunyo qarashi, tafakkur tarzidan kelib chiqish, xato qilish huquqi ta'minlanadi. Bunday mashg'ulotlarning qoidasi: o'zing bilganicha bajar, oz layoqating, qiziqishlaring va shaxsiy tajribangga asoslan, o'z xatoingni o'zing tuzat kabi ko'rsatmalarda o'z ifodasini topadi.

Ta'lim texnologiyalari turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. Biroq o'quv materialini samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar talabalarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillardan biri – ta'lim tizimini tuzilish va mazmun jihatidan isloh qilish uchun o'qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash, yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg'unlashtirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni, pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish hisoblanadi.

Ammo ta'lim texnologiyalar, innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi. Bu o'qituvchi faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. O'qituvchi faoliyatini o'zgartirmay turib, uning mas'uliyati va faolligini oshirmasdan ta'limda bir qadam oldinga siljib bo'lmaydi.

Ta'lim texnologiyasi (o'zaro) ta'limda o'qituvchi va talabalar, shuningdek, talabalarning o'rtalarida ham o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi. Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va talabalarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

O'qitish texnologiyasi pedagogik strategiya siyoatida talaba va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega boladi. Bunday texnologiyalarga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Pedagogik jarayonda shaxsni ko'zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiya (SH.A.Amonashvili texnologiyasi);

2. O'quv materialini sxemalar va modellar ishorasi asosida o'qitishni jadallashtirish texnologiyasi (V.YO.SHatalov texnologiyasi);

3. O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan texnologiya (S.N.Lisenkova texnologiyasi, N.P.Guzikning oqitish tizimini rejalashtirish texnologiyasi);

4. O'qitishni individuallashtirish texnologiyasi (Inge Unt, A.S.Granitskaya, V.D.SHadrikov texnologiyasi);

5. O'qitishni dasturlash texnologiyasi (B.P. Bєspal'ko).

Zamonaviy ta'lim oqituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro yoaol muloqot, ta'lim jarayonida talabalarning etakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o'rganilayotgan mavzu yoki o'quv materialini bo'yicha mustaqil fikrlash, o'z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida himoya qilish va ma'lum xulosalarga kelish asosida ta'lim maqsadlariga erishishni talab etmoqda.

Pedagogik texnologiyalar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi. Biroq, o'quv materialini samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar talabalarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar siyoatida belgilandi. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-uslubiy faoliyat mazmunini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini shakllantirdi.

Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) ta'lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Ta'limni modernizatsiyalashdan maqsad ta'limning taraqqiyotini ta'minlash va tizimda XXI asrda yashayotgan jamiyatning ehtiyojlari, iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlari, har bir shaxsning va oilaning ehtiyojlari aks etishi lozim.

Darhaqiqat, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari o'quv amaliyotiga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, elektron o'quv modullari, o'quv-uslubiy majmualar, multimediya ishlanmalarini yaratish, masofali o'qitish shakllarini joriy etish orqali ta'lim siyoatini takomillashtirish, malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bois, bugungi kun oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchisi nafaqat yaxshi mutaxassis siyoatida, balki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda sohaga oid ilg'or tajribalarni o'zlashtirgan va kasbiy faoliyatida keng foydalana oladigan ijodkor mutaxassis bo'lishini davrning o'zi taqazo etmoqda.

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish - innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida G'arbiy Evropa va AQSHda paydo bo'lgan.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.

Shu o'rinda an'anaviy va innovatsion ta'limni qiyosiy tahlil qilamiz:

An'anaviy va innovatsion ta'lim modeliga qiyosiy tavsif

Asosiy tavsif	An'anaviy ta'lim modeli	Innovatsion ta'lim modeli
Maqsadi	O'qitish natijasi (dastur asosida axborotni o'zlashtirish)	O'qitish jarayonida o'qishga o'rgatish
Talabning roli, o'rni	Passiv eshituvchi, tinglovchi	Faol ta'lim sub'ekti
O'qituvchining roli, o'rni	Bilim beruvchi manba	Tashkilotchi, menejer, boshqaruvchi
Bilim berish shakli	Tayyor holda, verbal mantlar shaklida	Interfaol o'yinli, muammoli, mustaqil mutoala, izlanuvchanlik
Olgan bilimlaridan foydalanish	Topshiriqlar, masalalar, yozma ishlar	Bilimni kundalik faoliyatda ishlatish
O'quv faoliyati shakllari	Frontal, ma'ruza, shaxsiy tayyorgarlik	Yakka, juft, kichik va katta guruhlarda o'quv jarayonini olib borish

Bizga ma'lumki, an'anaviy ta'limda shaxs pedagogik jarayon vositalaridan biri siyoatida qabul qilinib, uning faoliyatida bajaruvchilik, ijrochilik xususiyatlari ustunlik qilgan bo'lsa, innovatsion ta'lim esa, o'z maqsadi va mohiyatiga ko'ra, an'anaviy o'qitishdan farq qilib, ta'lim oluvchi shaxsining tabiiy imkoniyatlarini namoyon qilishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratishni taklif qiladi. Bunda talaba o'zini oquv faoliyatining sub'ekti siyoatida his qilishi, o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini rivojlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, innovatsion tayyorgarlik bu - mutaxassisining o'zlashtirilgan kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalariga tayangan holda pedagogik jarayonni loyihalashtirish, amalga oshirish va kafolatli natijaga erishish jarayonidagi nostandart tafakkur tarzi va ish tartibiga asoslangan holda yangi yo'nalishdagi o'qitishning shakl, metod va vositalarini izlab topishi va amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan siyosatlari yig'indisidir.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir. Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to'qnashuvi va o'zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshirishini ko'zda tutadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga o'qituvchining tayinli muloqoti aks fikrlarga nisbatan beg'araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o'qituvchi o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv)ga ega bo'ladi.

O'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, 'oz ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi mavzu (motiv)lar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug'dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O'qituvchi o'z nuqtai nazarlariga o'ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati 'ozgarib boradi, hissiy tuyg'ulari rivojlanadi.

“Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari” moduli talabalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish imkoniyatiga ega fan sanaladi. Muloqotlar asosida fanni chuqur o'rganish, ilmiy g'oyalar va hayotiy misollarni solishtirish orqali talabalar

mavzularni o'rganishlari mumkin. SHu bois quyidagi shartlarga amal qilgan holda o'qishda yuqori natijalarga erishish mumkin:

1. Talaba tomonidan o'qishga faol munosabatlarni shakllantirganda.
2. O'quv materiallarini ma'lum ketma-ketlikda berilganida.
3. Aqliy va amaliy faoliyat uslublarini mashqlarda namoyish etish va mustahkamlash.
4. Bilimlarini amalda qo'llash.

O'quv-tarbiya jarayoniga sohagi oid innovatsiyalarni, pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi – oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim siyoatini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Yangilik kiritish ta'lim siyoatini oshirishning samarali vositasi bo'lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta'lim jarayoniga uzluksiz yangilik kiritishga harakat qiladilar. Ko'pgina mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimidagi barcha bo'g'inlar ishtirok etishi lozim. Ammo innovatsion jarayonlar yuqoridan pastga qarab harakatlansa va bunda o'qituvchi bo'ysunuvchi, ya'ni yangilikning faqat iste'molchisi bo'lib qolsa, u holda bu jarayon natijaviylikni yo'qotadi.

Oliy ta'limi muassasalaridagi o'quv jarayonini tashkil etishning samaradorligini ta'minlashda o'qitishning shakl, metod va vositalarining tanlanishiga katta ahamiyat beriladi. Bugungi kunda ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan samarali o'qitish shakllaridan trening, vebinar, on line ma'ruza va seminarlar, binar mashg'ulotlar, shuningdek, aralash ta'lim (blended education) kabilarni keltirishimiz mumkin boladi. Oila pedagogikasini o'qitish jarayonini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi ko'zda tutiladi: Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish. Hamkorlik pedagogikasiga amal qilish.

1. Ta'lim jarayonini demokratlashtirish. Talabalarga tanlash huquqini berish.
2. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, 'ozaro hamjihatlikka asoslangan qulay ijtimoiy – psixologik muhit yaratish.
3. Talabalarning ijodiy va mustaqil ishlarini samarali tashkil etish.

4. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyasi elementlaridan foydalanish.

Ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan texnologiyalardan biri – hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir.

Hamkorlikda o'qitish har bir talabani kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs siyoatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir talabada shaxsiy qadr qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Mudulli texnologiyalar - eng zamonaviy texnologiya bo'lib, modul bloklaridan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, talabaning mustaqil faoliyatiga asoslangan, bilim, ko'nikma va malakalarni diagnostikasida turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon.

Bugun jamiyat o'qitish jarayoniga oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

“Oila pedagogika”sini oqitishda muammoli ta'lim texnologiyasi ham yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va talabalarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir.

Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq talaba fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi siyoatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Muammoli o'qitishning o'ziga xos jihatlari mavjudki, bu jihatlarni tadqiqotchi B.Aysmontas quyidagicha izohlaydi.

B.Aysmontas bo'yicha muammoli ta'limning yutuq va kamchiliklari:

Yutuqlari	Kamchiliklari
<p>1. Bilimlarni o'zlashtirishdagi yuqori darajadagi mustaqillik, ta'lim oluvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi .</p> <p>2. Talabani shaxsiy motivatsiyalari, bilishga doir qiziqishlarini shakllantiradi .</p> <p>3. Talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi</p> <p>4. Talabalarning dialektik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi, ular tomonidan o'rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi.</p>	<p>1. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllanishda boshqa ta'lim tiplariga qaraganda kam darajada qo'llaniladi.</p> <p>2. Boshqa ta'lim turlariga qaraganda bir xil hajmdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun ko'p vaqt talab etiladi.</p>

Interaktiv texnologiya - ("inter"- o'zaro va "akt" – harakat qilmoq) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini, o'quv axborotlarining o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga shuningdek, o'qitish maqsadlarining to'laqonlik amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi siyoatida tavsiflanadi.

Interaktiv ta'lim jarayonida o'quvchi (talabalar):

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon etish;
- bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

- turli vaziyatlarda haraktlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Yuqorida qayd etilgan texnologiyalar qatoriga oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda modulli ta'lim texnologiyalari, Keys-stadi, modulli texnologiyalar, o'quv loyihalari ham alohida o'rin tutadi.

IV.2. Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llanadigan asosiy metodlar.

Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llanadigan asosiy metodlar. Oila tarbiyasini tashkil etishda qo'llanadigan asosiy metodlar asrlar davomida shakllanib ,takomillashib borgan.Ular bevosita avlodlardan ajdodlarga hayotiy faoliyat jarayonida vorisiylik tamoyiliga muvoyoq uzatilib kelingan. SHu bilan birga ular avlodlar tomonidan to'plangan hayotiy tajribalar asosida boyitib borilgan.Oila tarbiyasini tashkil etishda samarali bo'lgan metodlar ijtimoiy munosabatlarning yo'nalishi,mazmuni va asosiy g'oyasiga muvofiq tanlab olinadi hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish maqsadida foydalanadi.

Oila tarbiyasi metodlari – muayyan jamiyatda ijtimoiy maqsadni amalga oshirish jarayonida pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlash maqsadida foydalaniladigan tarbiyaviy ta'sirlar tizimidan iborat . Bu metodlar shaxsga yo'naltirilgan bo'lib kamolga yetishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogika fanida e'tirof etilgan qarashlarga muvoyoq tarbiya metodlari o'sib kelayotgan avlod tarbiyasini tashkil etish, ularda ma'naviy- axloqiy , aqliy hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalash maqsadda qo'llaniladi.Milliy xususiyatlarni namoyon etuvchi tarbiyaning muhim omillari bo'lgan tarbiya metodlari yosh avlodni muayyan jamiyatda tan olingan ma'naviy – axloqiy me'yorlarga asoslanib tarbiyalashni nazarda tutadi.

Oila tarbiyasini tashkil etish chog'ida qo'llananilayotgan tarbiya metodlari o'zlarining yonalashi, mazmuni va asosiy g'oyasiga ko'ra rang-barangdir. Oila tarbiyasi metodlarini quyidagi tarzda guruhlash mumkin:

1.Mazmuniga ko'ra.

2.Qo'llanilishiga ko'ra.


3.Ta'sir darajasiga ko'ra.

O'z navbatida oila tarbiyasida qo'llaniladigan metodlar guruhining har biri ham alohida guruhlariga ajratiladi. Ular:

I.Mazmuniga ko'ra: 1) ijobiy xarakterga ega metodlar; 2) salbiy xarakterga ega metodlar.

II.Qo'llanishiga kora: 1) faol qo'llaniladigan metodlar; 2) kam qo'llaniladigan metodlar.

III.Ta'sir darajasiga ko'ra : 1) faoliyatdan norozilikni ifoda etuvchi metodlar; 3) ta'qiqlanishiga olib keluvchi metodlar.(1- rasm)





Oila tarbiyasi metodlarining turlari

Ijobiy xarakterga ega ayrim metodlarning mohiyati. Quyidagi mazmunga ega metodlardan namunalar keltirib, ularni mohiyati yoritiladi.

Iltimos metodi oilada bevosita talabning eng ta'sirchan va tez-tez ishlatiladigan shakllardan biri. U ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi samimiy munosabatlarga tayanadi va ularning hamkorligiga erishish vositasi hisoblanadi.

Iltimas qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, faoliyatni tashkil etishda bola mustaqil harakat qiladi. Iltimos shunday ohangda bayon etilishi kerak-ki, bola so'ralayotgan harakatni majburan emas, balki o'z ixtiyori bilan bajarilishi lozimligini anglasin. Shuni qayd etish zarurki, iltimos o'rtoqlarcha o'zaro yordam ko'rsatishga turtki bo'ladi.

Ishonch bilan talab qilish- eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U bolalarga o'zining oilada muayyan o'rnini borligini anglash hamda oila manyoatlari yo'lida mehnat qilish maqsadga muvofiq ekanligini his qilish, ularni ishonch bilan talab qilish maqsadga muvofiq ekanligini his qilish, ularning ishonchini oqlashga intilishga yordam beradi. Aksariyat holatlarda ishonch bilan talab qilish bolani ancha murakkab, ma'suliyatli, ayrim vaziyatlarda faxrli topshiriqni bajarishga yo'naltiriladi.

Bunda shuni eslatib o'tish kerakki, ishonch talabning faqat xususiy metodi emas, balki, eng avvallo, bolalarga bo'lgan munosabat mazmunini anglatuvchi

tamoyildir. Talabning mazkur ko'rinishini amalda *qo'llashda me'yorga rioya qilish, bolaga ishonchni ta'kidlayverish emas , balki u tomondan topshiriqni ongli amalga oshirilishi muhim ekanligini yodda tutish kerak.*

Ma'qullash- muayyan sharoitda bolalar faoliyatining kuchli omliga aylanadi. Bola tomonidan muvoffaqiyatli amalga oshirilgan faoliyatni ma'qullash kelgusida uning ijtimoiy faolligini oshirish ko'rsatkiclardan biri bo'ladi. SHuningdek, farzandlar ota- onalarining fikrlarini qadrlasalar, ma'qullash yanada samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zan o'smirlar ma'lum ishni bajarishda harakatlarini ota-onalar tomonidan ma'qullanishiga nisbatan ehtiyoj sazadilar. Ma'qullash ularda o'z kuchiga ishonch uyg'otib, bunda keying intilishlar manbai bo'lib xizmat qiladi. Ma'qullash bolani quvontiradi, tabiiyki, u ana shu quvonchni oz muvoyoqiyatlari bilan qiyoslab ko'radi. Vaqt otishi bilan faoliyatda erishilgan muvoffaqiyatdan qoniqishning o'zi amaliyotdagi eng kuchli omil bo'lib qoladi.

Ogit bolaga yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat bolib, u yoki bu xatti- harakat, amaliy vazifani ijobiy hal etish borasida bolaning mustaqil ravishda qaror qabul qilishi uchun ota- onalar tomonidan ko'rsatilgan amaliy tavsiya sanaladi.

Iltimos singari **maslahat** ham boladan muayyan faoliyat yoki hatti harakatni majburiy ekanligini anglatmaydi, ushbu vaziyatda bola tanlash huquqiga ega bo'ladi. Tarbiya jarayonida maslahat metodidan foydalanisgh bolada ishga ongli munosabatni shakllantiradi. Bundan tashqari, ota- onalarni do'st –siyoatida qabul qilishlariga imkon beradi. Ota- onaning obro'si atroflicha bilimlarga , katta hayotiy tajribaga , mahoratga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat – bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo'l –yo'riq emas , balki ko'pincha yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir. Maslahat berish yana shunisi bilan foydaliki , u bolalarni muayyan vaziyatlarda , ayniqsa, ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelganda ota- onalari maslahatlashishga o'rgatadi. Ota –onalar bolalarni bunday xatti- harakatlarini qadrlar ekanlar, kichik yoshdagi o'rtoqlariga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berishlari lozim.

Sha'ma qilish -bolalarni muayyan hatti –harakatlarga rag'batlantirishning yashirin shakli va eng nozik vositalardan biri. Sha'ma ilgari ishlatilgan yaxshi tanish bo'lgan, shuningdek, mohiyati ochib berilmaydigan talablarni o'ziga xos shartli qisqartmalaridir.Tajribali ota- onalar sha'ma metodini qo'llaganlarida aksariyat hollarda ko'z tikib qarash , qoshlarini harakatlantirish,” sirli” savolni berish bilan kifoyalanadilar. Bu o'rinda “O'tgan kunlar” romanida Yusufbek Hojining og'li Otabekka: “Hamma narsaga yetgan aqling shu narsaga qolganda hega oqsaydi?” , degan sha'masini keltirish mumkin. Muayyan sharoitda sha'ma iltimos,talabning “yashirin ” vazifasini bajaradi.

Shart metodi shundan iboratki , bola uchun yoqimli bo'lgan biror faoliyat yoqimsiz yoki qiyin faoliyat uchun rag'batlantiruvchi omil siyoatida namoyon bo'ladi.”Darslaringni qilsang- o'ynagani borasan” murojaat so'zi yuritilayorgan metodning yorqin ko'rinishidir.

Shart foydalanlganda bajarilishi shart bo'lgan faoliyatni tashkil etishga sarflagan kuch (jismoniy yoki aqliy) evaziga “mukofot siyoatida” taklif etiluvchi faoliyat o'tasidagi aloqa ko'zga tashlanadi. Aks holda bolalarda shartdan o'z manfaati yo'lida foydalanish istagi paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda talab ota-onalar tomonidan emas , aksincha, bolalar tomonidan qo'yiladi,ya'ni , “Bizning o'ynashimizga ruxsat etsangiz uyni yig'ishtirib chiqamiz” va h.k. tarzida.

Shart qo'yish bolalarni xulq- atvorlari, ularni qiziqish va mayllarini yaxshi bilish, ularni indivudial qobilyatlari va imkoniyatlari darajasini inobatga olishni nazarda tutadi. Bu usulni ham boshqa metodlar kabi suiste'mol qilmaslik kerak.

O'yin shaklida shart odatda bolalar uchun qiziqarli bo'lmagan, balki zerikarli mashg'ulotlarni tashkil etishga tog'ri kelganda, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash jarayonida samaradorlikka erishish maqsadida qo'llaniladi.

Salbiy xarakterga ega ayrim metadlarning mohiyati.Quyidagi salbiy mazmunga ega metodlardan namunalar keltirib ularni mohiyati yoritiladi.

Bolalarni u yoki bu harakatlariga salbiy baho berish ,uning salbiy odatlarini bartaraf etish hamda zararli xatti- harakatlarning oldini olish maqsadida ***qoralash***

metodidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Uning yordamida ijobiy xulq – atvor rag’batlantiriladi. Bunda xushmuomala murojaat qilish zarurdir.

Qoralash metodini uzluksiz ishlatish, ayniqsa, muayyan bolaga nisbatan qo’llayvermaslik kerak. Zero, bunday holda bu metod o’zining ta’sirchanligini yoqotishi yoki bolada oz imkoniyatlariga ishonchsizlikning qaror topishi uchun zamin yaratishi mumkin. Pedagogik texnika talablariga muvofiq qoralash metodini yumshoqroq ohanga aytilgan ta’na va ginadan g’azab va jahlning paydo bo’lishiga qadar oraliqda qo’llash mumkin.

Ishonchsizlik bildirish – bilvosita talab shakli bo’lib, boshqa ta’sir kuchi kamroq metodlarni qo’llash ish bermagan vaziyatlarda qo’llaniladi. Agar ota-onalar tomonidan bildirilayotgan ishonchiga qisman putur yetgan, bola xulqida salbiy odatlar namoyon bo’layotgan bo’lsagina ushbu metodni ishlab solish o’rinlidir. SHu bilan birga ishonchsizlik bildirish bolalar bilan tashkil etilayotgan munosabatlar mezoni darajasiga ko’tarilmasligi zarur. Aks holda ularning ota-onalari bilan bo’lgan munosabatlarida tog’rilab bo’lmas xatolar yuzaga keladi. Xususan, ovqat yeyilib fотиha o’qilgach, dasturxon yig’ishtirilmay qoldi. Ertasiga onaning bolalar bilan suhbatida jiddiy tarzda: “O’zlaringizdan” bilib hech narsa qilolmaysizlar.Men bo’lsam sizlarga ishonib o’tiribman-a”,- deyishi maqsadga muvofiqdir.

Qo’rqitish- tarbiya metodlaridan biri bo’lib, salbiy mazmunga ega. Undan foydalanishda bolalarni zarur harakatlarini rag’batlantiruvchi ularni yoqimli faoliyat turi bilan shug’ullanish, qandaydir huquqlardan mahrum qilish haqidagi ogohlantirishdir. Masalan uyga berigan topshiriqlarni birnecha marta tayyorlamay borgan bolaga ota:”Agar yana shunday qilsang, endi topshiriqni mening nazoratim ostida bajarasan” deydi.

Qo’rqitish tarbiyaning eng oxirgi usullaridan biri bo’lib, undan keyin jazolash qo’llaniladi. Ushbu metoddan samarali foydalanishning muhim qoidasi ota-onalar harkatlarining izzchilligidir. Agar talab bajarilmay qolsa, amalda qo’rqitishdan foydalaniladi. Ishonchsizlik bildirish va qoralash bilan birga

qo'rqitish pedagogik talabning shunday shakllariga mansubki, ularning kuchi va ta'siri o'zining qo'llanish tezligiga teskaridir.

40 dan ortiq ota-onalarning faoliyatini kuzatish ularning bolalar bilan munosabatlarni ijobiy yoki salbiy metodlarning turli ko'rinishlaridan foydalanishlarini tasdiqladi. Oilalar hayoti, ota-onalarning tarbiyachi siyoatidagi tajribasi bugungi kunda o'zbek oilalarida quyidagi metodlarga ko'proq murojaat etilayotganligini tasdiqladi.

O'zbek oilalarda tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlar

<i>Ijobiy metodlar</i>	<i>Salbiy metodlar</i>	
So'rash	<i>Arazlash</i>	<i>Qarg'ash</i>
Talab qilish	<i>Ayblash</i>	<i>Ho'mrayish</i>
Tasalli berish	<i>Tergash</i>	<i>zorlanish</i>
Ta'birlash	<i>Uyaltirish</i>	<i>yomonlashish</i>
Ta'kidlash	<i>Yalinish</i>	<i>bachkanalashish</i>
taqdirlash	<i>Tergash</i>	<i>Gina qilish</i>
buyurish	<i>Qaytarish</i>	<i>Ko'r-ko'rona ishonish</i>
Va'da olish	<i>Hazillshish</i>	<i>Nizo keltirib chiqarish</i>
Ta'qiqqlsh	<i>Zavqlantirish</i>	
Hamdard bo'lish		
Hurmat qilish		

Talab va uning tarbiyaviy ta'sir chanligi. Oilada bolalar muayyan xarakterga ega bo'lishlari, shuningdek, ular tomonidan ma'lum xatti-harakatlar sodir etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali metodlardan biri talab qilinadi. Mohiyatiga ko'ra talab quyidagi ikki maqsadni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Xususan:

1) bolalarning ijtimoiy –foydali faoliyatini tashil etishga rag'batlantirish. Ushbu o'rinda talab ota-onalar hamda bolaning hayotiy maqsadlari birligiga erishish

ta'minlanadi, jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy- axloqiy me'yorlar inikosining bolalar xulq atvori , xatti-harakatlari, shuningdek ijtimoiy faoliyati jarayonida aks etish uchun zamin yaratadi;

2)bolalarni oila manfaati yoki ota- onalarning xohish –istaklarini ro'yobga chiqarish yo'lida muayyan xatti- harakatlarni amalga oshirishga undash.

Talab o'z mohiyatiga ko'ra ikki: bevosita va bilvosita kabi turlarga bo'linadi.Ayni orinda talabning asosiy turlarining mohiyatini ta'riflash maqsadga muvofiqdir.

Talabning u yoki bu turini tanlash pedagogik vaziyatni hisobga olinishiga bog'liq.Bevosita talablarning qo'yilishi uchun zarur omil bo'lib xizmat qilinuvchi pedagogik vaziyatda quyidagi ikki holat yuzaga keladi va ular qo'yilayotgan talabning to'la bajarilishi uchun imkoniyat yaratadi.

- 1) Tarbiyalanuvchining muayyan talabni qo'yayotgan subektga nibatan munosabati;
- 2) Tarbiyalanuvchining bajarilishi talab etilayotgan faoliyatga bolgan munosabati.

Mavjud munosabatlarni ijobiy , betarayo va salbiy kabi guruhlarga bo'lish mumkun.Broq, tarbiyaviy faoliyat amaliyotida bunday munosabatlarning ko'plab ko'rinishlari kuzatiladi.

Bilvosita talablarda ota- onalarning maqsadi tog'ridan –tog'ri ifodalanmaydi,balki bir qadar yashirin tarzda bo'ladi.Talablarni qo'yishda rag'batlantirishdan ham foydalanladi. Rag'batlantirish omili siyoatida faqat talabning o'zida emas, balki bir qator psixologik omillar, ya'ni ,bolaning ichki kechinmalari,his- tuyg'ulari,hayotiy ehtiyojlari va qiziqishlariga tayaniladi. Bevosita talablarni mohiyatiga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin.

1.Ota-onalarning farzandlariga bolgan ijobiy munosabatini ifodalovchi talablar.Bular –iltimos, ishonch, ma'qullashdir. Ayni o'rinda ularni **ijobiy talablar** deya nomlash mumkin.

2.Ota-onalarning bolalarga bolgan munosabatini yaqqol ifodalovchi hamda farzandlarni muayyan faoliyatga rag'batlantiruvchi munosabatlar mohiyatini yorituvchi talablar.Bular- maslahat,sha'ma,shartli talab va o'yin shaklidagi talablar.

3. Bolalarning u yoki bu axloqiy xislatlariga salbiy munosabatni namoyish etuvchi talablar. Bular-ishonchsizlik bildirish va do'q qilishdir.Ularni salbiy talablar deb atash mumkin.

Shunday qilib,oila muhitida tarbiya metodlaridan samarali foydalanish, bolalrni ijtimoiy- foydali mehnatga o'rgatish alohida o'rin tutadi.Shuning uchun bolalar bilan yaxshi munosabat o'rnatish uchun ijobiy metodlarni ko'proq va salbiy metodlarni kamroq ishlatish zarur.

IV.3. Oilada muloqot.

Odamlar o'rtasidagi muloqotning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro tmunosabatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokati, shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan hislatlardir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o'z xujayinining "Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so'ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir, " - deb buyurganida, u har ikkala safar qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrlri bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi mumkin.

Muloqot madaniyati birinchidan, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildira olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsini individual xususiyatlariga eng ma'qu! keladigan muloqot shakli, usullarini tanlay bilish kiradi.

Muloqot eng awalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlab o'zaro baholash amalga oshadi, hissiy - intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshadi.

Muloqotda buyruq oxangining ustunligi, do'q-po'pisa oxangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirib turiladigan e'tirozlar, uning xatti - harakati va yoikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni

namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik, bo'ysunuvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi.

Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi muloqotdagi to'siq, shaxslararo munosabatlar buzilishining sabablari bo'lib hisoblanadi. Biz boshqa odamlarda bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o'zimizning fikr-o'ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz.

Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni, ya'ni psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivasion to'siqlarni asoslaydilar.

Psixologik to'siq - bu sherigiga ma'qul tushmay qolishdan, u tomondan inkor etilishi va kalaka qilinishidan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izxor etishga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga, mehribonlik, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi o'ziga xos ichki ruxiy tormozlanishdir.

Vaziyatli to'siqlar - bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatini turlicha tushunishlari, unga turlicha yondoshishlari bilan bog'liq.

Mazmuniy to'siqlar - odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari suryapti, nimani nazarda tutyapti, nimaga olib boradi, shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivasion to'siqlar - shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrining motivini yetarlicha anglay olmaydi. Yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Yosh oilalarda er - xotin munosabatlari o'ziga xos xududiylik, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er - xotin munosabatlari boshqa bir er - xotonga mos kelmasligi mumkin. Chunki yosh oila hisoblangan er-xotinlar turli shaxslararo munosabatlar tizimi,

turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs siyoatida shakllangan kishilardan tashkil topadi.

Umuman yosh oilalarda er - xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvaio shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillarining harakteriga, yuzaga kelishi shart - sharoitlariga uzviy bog'liqdir.

Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha motivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-birlarini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi. Ularning bir-birlariga, o'z nikohlari, bo'lajak hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobiy bo'adi. Inson oila qurar ekan, ahil - inoq yashab, murod-maqsadiga yetishni orzu qiladi, nikoh arafasida va nikoh kechasi barcha yaqin birodarlar, qarindosh urug'lar, to'yga tashrif buyurgan mexmonlar, yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. Bu jarayon erkaklarda ayollarga nisbatan yengilroq kechadi. CHunki ular, o'zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aksariyat hollarda erning uyida, uning ota - onasi va boshqa qarindoshlari bilan yashaydi. Yangi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayonining o'zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining asosiy sabablaridan biri unda yosh kelin yuqorida aytib o'tilgan vaziyatga tushishi bilan birga yangi oilada kelin o'zini "begona" deb his etishidir, ya'ni undagi "begonalik effekti" ning mavjudligidir.

SHunday qilib, eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari yaxshidan yomonga qarab rivojlana boshlaydi. CHunki nikohning boshida kuzatiladigan er - xotin ortasidagi ko'tarinki emosional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ular hissiyotining o'tmaslashuvi ro'y beradi.

Er-xotinlarning oldidagi muloqoti shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunishi bilan birga, bosh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ega. Hamkasblar, o'rtoqlar, do'stlar va sevishganlar hamma vaqt birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, o'zaro muloqotlarini o'zlari xohlagan vaqtlarida kamaytirib, hatto to'xtatib qo'yishlari mumkin. Masalan, uchrashuvga borilishi lozimligini "unutib" qo'yish, kutilmaganda "juda band" bo'lib qolishi mumkin.

Er-xotinlar ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Qadimiy, afsonaviy Sparta qonunchiligida er-xotinlarni ishqiy munosabatlarini sovuqlashib ketishidan saqlash maqsadida ularning muloqotlari imkon qadar chegaralab qo'yilgan. Unga kora erlar xotinlarni ajratilgan holda, ya'ni er va xotin boshqa yashaganlar. Va ular ovloq joylardagina "begona ko'zlardan" yashirin tarzda uchrashib turishlari mumkin bo'lgan. Bu tadbir nafaqat Sparta jangchilari o'zlarining jangovar ruqlarini yo'qotmasligi, o'zlarini yosh xotinlari bilan mashg'ul bo'lib qolmasliklari uchungina emas edi. Bunda "ta'qiqlangan meva" effektidan foydalanilgan. Uchrashishlarning qiyinligi, xuddi tuzsiz taomga tuz, ziravorlar qanchalik maza berganidek, er-xotinlarning bir-birlariga hissiy yaqinligini sezilarli darajada kuchaytiradi, nikoh rishtalarini mustahkamlaydi.

Doimiy muloqot bir xillik ko'rinishni yuzaga keltiradi, tabiiyki, bundan hayotdagi kundalik ikir-chiqirlar kopayadi., ayni vaqtda chuqur hissiyotlar o'z ob'ektining yaqinligi tuyoayli kundalik odatlar shaklini oladi. Er - xotin muloqotining o'ziga xos nozik jihatlaridan yana biri ulaming bir - birlari bilan yetarli darajada intim munosabatlarda bo'lishidir.

Har bir halqda, har qaysi zamonda go'zallikning o'ziga xos belgilari bo'ladi. Go'zallik va gozal emaslik haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan so'zsiz o'zgaradi. Biroq umumhalq tomonidan qabul qilingan va e'tirof etilgan go'zallik etalonlari bilan bir qatorda individual, shaxsiy xususiy etalonlar bo'ladi. Aytishlaricha, boyug'li qushlarning orasida eng go'zallari uning bolalari ekanligidan maqtanar ekan, chunki "ularning hammasining qoloqlari uzun, boshi katta, umuman o'ta go'zal" ekan. Kim biladi, bu borada kabutar nima degan bo'lar ekan. Aynan mana shu go'zallikni o'ziga xos "ziravorlar": kiyimlar, soch turmagi, xatti - harakat, imo-ishoralar, qiliqlar, sozlar va shu kabilar bilan saqlab qolish kerak bo'ladi. Uni nafaqat "halq ichida" balki o'z uyida ham saqlash kerak.

Intim munosabatlar nayoqat jinsiy munosabat, balki ancha ochiq, yaqin, ma'naviy muloqotdir. Intim (fransuz tilida "intime" - "yaqin", "qulay", "ko'ngildan", lotinchada "intimiz" - "chuqur", "chin dildan") muloqotlar deyilganda, psixologiyada shunday muloqotlar tushuniladiki, undan odam boshqa odam oldida

qandaydir bir ijtimoiy rolni (rahbar yoki xodim, sotuvchi yoki vrach va shu kabi) bajaruvchi emas, balki aynan "yagona" shaxs siyoatida - nodir, takrorlanmas mavjudod siyoatida namoyon bo'ladi, bunda u mutlaqo oshkora, ochiq, hech narsadan qo'rqmay, o'zining ichki olami, o'zining barcha xususiyatlarini uyalmasdan namoyon qila oladi. Bunday muloqotda suhbatdosh odamlar o'rtasida chuqur va o'zaro oshkoralik (jismoniy, psixologik, shaxsiy, ma'naviy) amalga oshadi. Bunda suhbatdoshlarning tanasi, yo'kri, hissiyoti, harakteri vahayotiy rejalari, qadriyatlari va fikrlari ochiladi.

Intim munosabatlarga sevgi, do'stiik, dushmanlik, yolg'izlik kabilarni kiritish mumkin. Biroq intim muloqotlar nafaqat istalgan muloqotlar siyoatida, balki xavfli, "qo'rqinchliroq" muloqotlar siyoatida idrok qilinishi mumkin. Er-xotinlarning oiladagi muloqotining muhim xususiyatlaridan biri shuki, u ma'lum darajada kundalik, maishiy fonda amalga oshirishdir.

Boshqa odamlar, boshqa erkaklar va ayollar bilan bolgan muloqotda biz kotarinkilikni, uyda esa buning aksirti koramiz.

Psixologlar muloqotning o'ziga xos uch xil kommunikativ jihatini farqlaydilar. Bular: "ota yoki ona" "katta", "bola". Ularning hammasi bir odamda mujassam bo'lishi mumkin. "Katta" pozitsiyasi odamning atroyoidagilar bilan teng darajada muloqotda bo'la olishni biidiradi. Atrofidagilarga o'z hukmronligini o'tkazmaydi yoki o'ziga nisbatan "ma'qullovchi" inunosabatni yo'qotmaydi, "Bola" pozitsiyasida odam xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, oson ishonuvchanlik, injiqlik, boshqalardan mehr olishni istash, kuchiiroq odam tomonidan panohtopishni namoyon qiladi.

4. Oilaning mustahkamligiga ta'sir qiluvchi omillar

Psixologlarning fikricha, kelin - kuyovlarning yoshi 30 dan oshmagan 1-nikohdagilar yosh oila hisoblanadilar. Odatda yosh oila tushunchasi oilaviy hayotning dastlabki 10 yilini o'z ichiga oladi.

Nikohdan o'tib oila qurilgandan song u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. SHulardan eng ko'p kuzatiladigani ijtimoiy va psixologik jihatdan ahamiyat kasb etadigan aynan shu yosh oila bosqichiga tog'ri keladi. Bu bosqichda er - xotinlarning

oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanadi, farzandlar dunyoga keladi, ularni tarbiyaiash, voyaga yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy ishlar amalga oshiriladi.

Oilaning mustahkam bolishi, er - xotinning baxtiyor tinch - totuv yashashlarida ularning o‘zaro qovushuvi muhim rol o‘ynaydi. O‘zaro qovushishlarni shartli tavishta uchta tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Biologik qovushuv.
2. Psixologik qovushuv.
3. Ijtimoiy qovushuv.

To‘ydan keyingi dastlabki "asal oyi" odatda, osoyishta, shirin, totuvlik bilan o‘tadi.

Biologik qovushuv. Biologik shaxobchasining ruxiy shaxobchaga nisbatan bir muncha turg‘unligini hisobga olish zarur. Ya‘ni shakllangan mijoz toifasini o‘zgartirib bo‘lmasligini va bunga intilishni samarasizligini unutmaslik lozim. Mijoz jihatidan kelin-kuyovlar turlicha bo‘lishlari, ba‘zan esa bir - biriga qarama-qarshi zid toifalarga mansub bo‘lishi mumkin. Lekin bu oila mustahkamligi uchun xavfli omil deb hisoblash xato bo‘ladi.

Psixologik qovushuvda er-xotinning ruxiy xususiyatiari, ya‘ni fikrlari, karakteri, temperamenti, qiziqish, ehtiyojlari, hissiyotlari bir- biriga mos keladi.

Ijtimoiy qovushuvda esa ularning dunyoqarashi, e‘tiqod, tilak, niyatlarining bir - birlariga mos kelishi lozim.


Demak, oiladagi shaxslararo munosabatlarning to‘g‘ri shakllanishi ko‘proq er-xotin o‘rtasidagi turlicha munosabatlarga bog‘liq ekan. SHuning uchun biz yoshlarga avvalo, muloqot sirlarini, muloqot madaniyatini o‘rgatishimiz zarur.

Nazorat savollari :

1. Muloqot deb nimaga aytiladi ?
2. O‘zbek oilalarida muloqot tashkil etishning qanday hususiyatlari bor?
3. Muloqotning qanday uslublari bor ?
4. Ko‘proq ota – onalar farzandlari bilan qanday uslubda muloqot o‘rnatadilar?

Oilada muloqotni boshqarish turlarini “Venn” diagrammasi asosida tahlil qilish qoidalari.

Topshiriq: Muloqotni boshqarishning avtoritar, liberal va demokratik uslublarini o'zaro taqqoslang.



Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

- Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	+	?
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				

Fan yuzasidan Keyslar to'plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar.

Keys-stadi amaliy vaziyatlarni tahlil etish va hal qilish asosida o'qitish usuli siyoatida xorijiy ta'limda avval-boshda huquq sohasida qo'llanila boshladi: u ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo'llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o'qituvchilari yuristlarning o'qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va

muhokama qilishni ta'limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o'qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Mamlakatimizdagi ta'lim sohasida keys-stadi, dastlab, mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida, ayniqsa boshqaruv sohasida qo'llanila boshlangan edi. Keyingi yillarda oliy o'quv yurtlarida ham o'qituvchilarning keyslarni ishlab chiqish va amalga oshirishga qiziqishi oshayotganligi kuzatilayapti.

Keys-stadini Maktabgacha ta'lim yo'nalishining ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etishning dolzarbligi va zarurligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

Birinchidan, bola shaxsining shakllanishida oilaning muhim omil ekanligi, uning nafaqat ta'lim oluvchilarda aniq bilimlarni shakllantirishga, shu bilan birga talabalarda fikrlash faoliyati, nazariy bilimlarini amalda qo'llashga tayyorlik va bunga qobillikni rivojlantirish, bolg'usi mutaxassislarda mustaqillik va tashabbuskorlik, bola shaxsi rivojlanishiga oid muammolar va tadqiqotlarning turli jihatlari bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni idrok etish qobiliyatini ravnaq toptirish.

¹Karimov I.A. Yuksakma'naviyat - yengilmas kuch. Ma'naviyat-T.: 2010 y. 53-bet. toptirishga yo'naltirilganligi bilan.

Talabalarning keyslarni ishlab chiqish texnologiyalarini o'zlashtirishi, keysda taqdim qilinadigan amaliy muammoli vaziyatlarni tahlil etish, yakka tartibda va jamoa bo'lib ularni optimal hal qilish yo'llarini izlash malakalarini egallashi, bo'lg'usi mutaxassisda funksional vakolatlilikni shakllantirish - kasbiy faoliyatda o'zining boshqarish va tashkil qilish texnologiyalarini loyihalashtirish, kasbiy jarayon mantig'ini qurish usullari, shuningdek kasbiy vazifalarni mustaqil va mobil tarzda hal etish usullarini hosil qilishga yordam beradi.

Ikkinchidan, bola shaxsi rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan turli muammoli vaziyatlarda bir tizimli asosda va samarali harakat qilish, oqilona yechimlarni qabul qilish qobiliyatini egallagan mutaxassislarga **muhtojligi** bilan.

Keysda har xil hayotiy vaziyatlar bayoni beriladi va ularning oqibatlari xususida mushohada yuritish yoki qatnashchilar harakatlarining samaradorligini baholash yoxud muammoni hal etish usullarini takliyo qilish talab etiladi. Lekin har qanday holatda ham amaliy harakat modeli ustida ishlash ta'lim oluvchilar – bo'lg'usi pedagoglarda bola shaxsini ijtimoiylashuvini ta'minlashni talab qiladigan kasbiy jihatdan muhim xususiyatlarni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Uchinchidan, jahon tajribasi korsatib turganidek, **keys-stadi talabalarda ijtimoiy etuklikni rivojlantirish, o'qishga qiziqish va motivlarni hosil qilish, ularni haqiqiy professionallar siyoatida etishtirishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.**

XULOSA VA TAVSIYALAR

Innovatsion faoliyat bir necha bosqichlarda tarkib topadigan faoliyat bo'lib, o'zining nazariy va amaliy asoslariga ega bolgan pedagogik faoliyatning o'ziga xos bosqichidir.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashda pedagoglarning psixologik tayyorgarligini oshirish, ularning shaxsiy imkoniyatlarini namoyish etishga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega bolib, bu tadbirlar malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim. Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim siyosatini oshirish, samaradorligini takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash borasida boy tajriba toplangan. Ular orasida loyiha ta'limi texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Loyiha ta'lim o'qitish jarayonini loyihalash, dasturlash, modellashtirish orqali talabalarga puxta bilimlarni berishni nazarda tutadi hamda talabalarning o'quv faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

CHiqarilgan xulosalar asosida **“Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari”** modulini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yuzasidan quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ilg'or xorijiy tajribalar siyoatida ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qollash orqali OTMda oqitish siyoatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga erishish;

- respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or tajribalar va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq etish orqali bu borada pedagoglarning ish tajribalarini boyitish va ularda ta'lim jarayonini samarali tashqil etishga nisbatan ijodiy, innovatsion yondashuvni qaror toptirish;

- OTMda talabalarning o'quv-bilish faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan holda ta'lim siyoatini oshirish va samaradorligini ta'minlash yo'lida innovatsion texnologiyalaridan samarali, muvaffaqiyatli foydalanishga doir mahalliy tajribalarni toplash, ularni ommalashtirish;

- innovatsion pedagogika texnologiyalar siyoatida: loyihaviy ta'lim texnologiyasi, interfaol texnologiyalar, hamkorlikda o'qitish texnologiyalar, Key-stadi texnologiyasi, axborot-kommunikatsion texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyidagi muammo bo'yicha olib borilgan natijalaridan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- "Oila tarbiyasi metod, shakl va vositalari" modulini o'qitishga mo'ljallangan mukammal o'quv qo'llanma va uslubiy qo'llanmalar yaratish;
- interyoal metodlar orqali yoshlarni oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini boyitish.
- pedagogik ma'lumotga ega bolmagan ota-onalar uchun doimiy o'quv kurslari tashkil qilish bo'yicha talabalarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. “O'zbekiston”, 2017 y. – 44-b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I. A. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi: T.: “Ma'naviyat”, 2006 y. – 46 b
4. Abdurahobov U. SHaxs (Kamil inson haqida).- T.: Vatan, 1996. – 20 b.
5. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: SH.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – T.: SHarq nashriyot-matbaa konserni, 1998. – 184 b.
6. Alqarov I. SH., Mamatqulieva R., Norqulov X. D. SHaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi: T.:”Fan va texnologiya”.-2009 – 72 b
7. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134 b.
8. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent.: “Fan” nashriyoti, 2006 y.
9. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi. 1994.
10. Milliy urf-odat, marosim va an'analarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni //Nazariy-seminar mater. - T.: Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari instituti, 1999. – 92 b.
11. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.- T.: Oqituvchi, 1996. 192 b.
12. Xasanboeva O. va boshq. Oila pedagogikasi - T.: Aloqachi. 2007.
13. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. –T. K.Xoshimov, S.Ochil; Taxrir xayati: T.Xayrullaev va boshq.). – T.: “O'qituvchi” nashriyoti,1990 y.
14. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.,Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: “Iste'dod” jamg'armasi,2008 -180 b.

15. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). - T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2009 - 160 b.
16. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004, 2008 (qayta nashr). - 44 b.
17. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (2 kitob). — T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – 108 b.
18. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. Fan va texnologiya. 2011. 275 bet.
19. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T.: "Iqtisodiyot", 2011. – 208 b.
20. Ma'naviyat va yoshlar. – Toshkent.: "Abu matbuot-konsalt".: 2008 y. – 18b
21. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qoll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
22. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
23. Slastenin V.A. Obщaya pedagogika. – Moskva: Pedagogika, 2003.
- Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1997.
24. Kulikova T.A. Semeynaya pedagogika i domashnoe vospitaniya: (uchebnoe posobie). M., 2000-232 s.
25. http://imp.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/13.html.53.
26. <http://ziyonet.uz.uzc.education.system.college>.

MUQADDIMA.....3

I bo'lim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'z faoliyatini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari
.....11

II bolim. Boshlag'ich sinf o'quvchilarining o'z faoliyatini baholash va tashxislash ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari .
.....40

III bolim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z faoliyatlarini baholash va tashxislash ko'nikmalarining shakllanganlik holati va ularni takomillashtirish usullari73

UMUMIY XULOSALAR.....90

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....94

